

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAZSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA–QURILISH INSTITUTI
ARXITEKTURA FAKUL'TETI
«SHaharsozlik va landshaft Arxitekturası» kafedrası

5341000 - "Qishloq hududlarini Arxitektura loyihaviy tashkil etish" yo'nalishi
bo'ycha
bakalavr diplom ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Andijon viloyati Oltinko'l shaxri jamoat markazi
rekonstruksiya loyihasi

Bitiruvchi: Abdusalomov Farxodbek Ziyoyiddin o'g'li

Rahbar: Rasulov Nigmat Fayzullaevich

Toshkent 2017

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI
Arxitektura fakulteti _____yo'nalishi

_____guruhi

«TASDIQLAYMAN»

«Shaharsozlik va lanshaft

Arxitekturasini»

kafedrasini mudiri

«____» _____ 20__ yil

**Diplom ishi bo'yicha
T O P S H I R I Q**

BITIRUVCHI _____
(F.I.SH.)

1. Diplom ishi mavzusi: _____

«____» _____ 20__ yildagi № _____ buyruq bilan tasdiqlangan

2. Topshirish muddati «____» _____ 20__ y.

3. Tushuntirish xati tarkibi (asosiy bo'limlar):

- Arxitekturaviy - rejalashtirish
- Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish
- Hududni muxandislik tashkil etish va transport
- Hayot faoliyati va mexnat xavfsizligi
- Ilovalar
- Adabiyotlar

4. Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshtab ko'rsatilishi bilan) _____

(davomi)

5. Diplom ishi bo'yicha konsul'tantlar

№	Bo'lim	Konsul'tant- o'qituvchi F.I.SH.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1.	Arxitekturaviy rejalashtirish			
2.	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish			
3.	Hududni muxandislik tashkil etish va transport			
4.	Hayot faoliyati va mehnat xavfsizligi			

6. Diplom ishini bajarish rejasi

№	Diplom ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati*	Tekshiruvda n o'tganlik belgisi
1.	Arxitekturaviy – rejalashtirish		
2.	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		
3.	Hududni muxandislik tashkil etish va transport		
4.	Hayot faoliyati va mehnat xavfsizligi		

* - Bo'limlarni bajarish muddatlari maslahatchilar tomonidan belgilanadi

Diplom ishi rahbari _____
(imzo)

Bitiruvchi _____

MUNDARIJA

1. KIRISH.....	5
2. ASOSIY QISM	
1. Me'moriy rejaviy yechim.....	17
1.1. Shahar markazlarining tarxiy kompozitsiyasi.....	19
1.2. Oltinko'l tumaninig tabiiy-iqlimiy sharoiti, aholini o'sish sharoiti.....	26
1.3. Tumanning bugungi holati va loyihaviy taklif.	31
1.4. Loyihani funksional zonashtirish.....	35
1.5. Loyihaviy yechim.....	37
2. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish.....	40
2.1 Landshaft aritekturasini atamasi.....	42
2.2. Qishloq aholi joylarining markazi rekonstruksiya.....	46
2.3. Loyihaviy taklifda ko'kalamzor hudud.....	48
3. Hududni muxandislik tashkil etish va transport.....	50
3.1. Shaharsozlikda transport va muhandislik tarmoqlarini tutgan o'ni.	52
3.2. Avtomobillar va boshqa transport vositalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha inshootlar va korxonalar.....	55
3.3. Muxandislik tarmoqlarining joylashuvi	56
3.4. Oltinko'l tumanining mavjud ko'cha yo'l tarmog'i va unda loyihalangan transport va muhandislik tarmoqlari.....	59
4. Hayot faoliyati va mehnat xavfsizligi.....	62
4.1. Hayot faoliyati xavfsizligining bugungi kundagi qurilish sohasidagi ahamiyati, maqsadi va vazifalari.	64
4.2. Qurilishda mehnat sanitariyasi va gigienasi.	65
4.3. Qurilish jarayonlarida mehnat xavfsizligi.	67
4.4. Yong'in xavfsizligi.....	78
3. XULOSA	71
4. ADABIYOTLAR.....	72
5. ILOVA.....	74

KIRISH

Axolini, ayniqsa, qishloq xududlarida istiqomat qiluvchi axolining sharoitlarini yaxshilanishi respublikamizning agrar sektorida ishtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir etilishini nazarda tutadi. Obodonlashtirilgan shahar muhitini yaratish avvalambor rekonstruksiya qilinayotgan tuman markaziga arxitekturaviy yechimni to'g'ri tanlashga bog'liq.

Tanlangan hududning tabiiy shart-sharoitlari: relyefi, tuprog'i, gidrogeologik, iqlimiy, landshaft va boshqalar shaharsozlik uchun qulay bo'lishi kerak, hudud kerakli o'lchamda va konfiguratsiyada, kelajakda makoniy rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Qulay tabiiy sharoitlar quyidagi omillarni ko'zda tutadi: unchalik baland-past bo'lmagan relyef, yetarli zichlikdagi tuproqlar, chuqur joylashgan yer osti suvlari, suv bosish va yer osti suvlarimng ko'tarilishi xavfi yo'qligi, qulay mikroiklim, shamollardan yetarli darajada himoyalanganlik, quyuq ko'kalamzorlar yoki juda bo'lmaganda o'simliklar ekish uchun yaraydigan tuproq.

Hudud yetarli kommunikatsion sharoitlarga ega bo'lishi, unda suv ta'minoti, kanalizatsiya, energetika muammolarini tejimli yechish imkoniyatlari bo'lishi kerak. Tabiiyki, tanlangan hudud har doim bu talablarga javob beravermaydi, yuqorida keltirilgan omillarning bir qismi unda bo'lmasligi mumkin. Bu holda uni kam xarajat ketkazib qurilish uchun yaroqli holga keltirish kerak. Bunda relyefni rejalashtirish, daryo qirg'oqlarini tartibga solish, melioratsiya suv toshqinidan himoya qilish, suv ta'minoti, oqava suvlarni tozalash va boshqalar oqilona chegaralar doirasida bo'lishi lozim.

Aholi joyiga yoki uning qismlariga joy tanlash masalasi kapital mablag'lar hajmi va uni ushlab turishga ketadigan xarajatlar, chegaralanishlar va loyihaviy talablar bilan bog'liq turli xil muqobil variantlarni solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Yangi shahar qurilishi va mavjud shaharni kengaytirish uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

- odamlar hayoti uchun joyning eng qulay tabiiy sharoitlarini;
- atrof-muhit muhofazasi talablarini;
- sanoat, turar-joy, transport va qurilishning boshqa turlarini;
- maydonning sifatiga bo'lgan talablarni;

— sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va aholi hayotini eng ko'p qulayliklar bilan ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda shahar asosiy qismlarining o'zaro joylashishi sharoitlarini;

- hududlarni muhandisona tayyorlash va obodonlashtirish sharoitlarini;
- qurilish iqtisodiyoti talablarini hisobga olish kerak.

Yangi shahar uchun hudud tumanni rejalashtirish materiallari asosida tanlanadi. Bunda qurilish uchun tanlanayotgan hudud quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- shaharning kelajakda kengayishi imkoniyatlarini hisobga olib qurilishning barcha turlarini joylashtirishga yetadigan o'lchamga;
- sanoat, turar-joy va jamoat binolarini qurishda hamda qimmatli muhandislik ishlarisiz ko'kalamzorlashga imkon beradigan tabiiy sharoitlarga;
- shaharning tegishli qismlarini temir yo'i va avtomobil tarmog'iga qulay qo'shilishini hisobga olgan holda shaharning turli funksional qismlarini maqsadga muvofiq holda joylashtirish uchun qulay sharoitlarga yetarlicha energiya va suv ta'minoti manbalariga ega bo'lishi lozim.

Shahar tarxi loyihasi kelajak qurilish hududini shaharsozlik tadqiq qilishga asoslangandir. Bunda bu hududda quyidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan tahlil o'tkaziladi:

- tabiiy-iqlimiy — harorat, insolatsiya, namlik va shamol rejimini, landshaft va relyef, suv havzalari va o'rmon massivlarini turli shakllarida baholash; zamin va o'simliklarning tuproq sharoitlarini baholash;
- tabiiy landshaftni baholash — hududni topografik o'rganish, relyef shakllari gidrogeologik va gidrologik rejim, geologik tuzilish va tuproqlarning ko'tarish qobiliyati, suv toshadigan va yer osti suvlari ko'tariladigan maydonlar,

erroziya va jarlik hosil bo'lishi va boshqa aniqlashtirilgan tavsiflar bilan muhandis-qurilishni baholash;

— hududni ma'muriy-landshaft o'rganish - bu shaharni va uning me'moriy ansambllarining me'moriy-tarxiy kompozitsiyasini yaratish uchun lozim. Bunda joyning perspektivalari va bo'lajak imoratlar panoramalarif asosiy ko'rinish nuqtalari aniqlanadi, landshaftning turli xil elementlari, ko'kalamzor, suv va ochiq hududlarning muvofiqligi tahlil qilinadi.

Tabiiy-iqlimiy omillar. Ma'lum bir hududda ko'p yillar davomida kuzatilgan va ushbu yer qoplamasiga (tuproqni)» nstki qatlami, suv, o'simliklari va boshqalar) bog'liq bo'lgan ob-havoning yil mobaynidagi qonuniy jarayonlari umumiy qilib iqlim deyiladi.

Iqlim geografik kenglik, dengiz sathidan balandligi, atmosferaning fizik tavsiflari majmui, uning harorati (quyosh faolligi), namligi, shamol va yog'inlar orqali aniqlanadi. Iqlim ta'siri ostida tuproq qatlami va o'simlik dunyosi shakllanadi. Iqlimning hayvonot dunyosi, inson hayoti va uning kundalik turmush tarziga ta'siri katta.

Quruqlik suv va quyoshning doimiy o'zgaruvchan o'zaro ta'siri malum bir hududning tabiiy-iqlimiy xususiyatlarini tashkil etadi, ob-havoning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan atmosfera holatini aniqlaydi. O'zgaruvchan jarayonlar chastotasi quyosh energiyasi intensivligi va bu jarayonlarda qatnashuvchi namlik darajasiga bog'liq. Bu ikkala urtiq namlik va quyosh iqlimning muhim tashkil etuvchisidir. Iqlim shakllanishiga shamol va havo massalari oqimiga mexanik to'siq sifatida xizmat qiluvchi relyefning baland-pastligi ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tog'lar aksariyat hollarda iqlimiy hududlar chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Iqlim rejalashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Joyning harorat va liavo namligi, yog'inlar miqdori, shamol tezligi va qaytarilishi hamda insolatsiya sharoitlarining birligi turli xil tabiiy omillarga doimiy bog'liqdir. Masalan, yog'inlarning o'rtacha yillik miqdori Kavkazorti quruq tumanlari uchun 150—200 mm ni, Peterburgda 750 mm ni, Sochida - 2080 mm ni tashkil etadi.

Turli xil joylar uchun joyning namligi 40-75 % atrofida tebranadi.

Radiatsiya — nur taratish (lotincha rudiare - nurlar taratish). Quyoshning bir daqiqa davomida yerning 1 m^2 yuziga perpendikular nur tushganda keladigan issiqligi bir daqiqa davomida 1 m^2 yuzaga 2 kal to'g'ri keladigan quyosh doimiysi deyiladi. Bu energiya ultrabi- nafsha radiatsiya (qisqa to'lqinlar) va infraqizil radiatsiya (uzun to'lqinlar) shaklida uzatiladi. Bu radiatsiyaning katta qismini biz issiqlik shaklida, kam qismini yorug'lik shaklida qabul qilamiz.

Yerning quyosh atrofida o'zgaruvchan aylanish o'qi bilan aylanishi yil davomida yerning har xil hududlarida yorug'likning har xil tarqalishiga olib keladi.

Yerning radiatsiya orqali qabul qiladigan quyosh energiyasi miqdori quyoshning kun davomida balandligi, nurlarining tushish burchagi, kenglik, nurlanish davomiyligi, dengiz sathining balandligi va atmosfera sharoitidan kelib chiqib aniqlanadi.

Quyosh energiyasi atmosferadan o'tish jarayonida tarqaladi va yutiladi, bu esa yerning radiatsiyasini ancha kuchsizlantiradi.

Shahar muhitining issiqlik rejimi to'g'ridan-to'g'ri nurlanish va tarqalgan nurlarning aks ettirgan radiatsiyasidan, shuningdek, havo haroratidan tashkil topadi. Issiq iqlimli hududlarda shaharsozlik amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri radiatsiyaga shahar muhitiga ko'proq doimiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida katta ahamiyat beriladi. Rejalashtirish vositalari yordamida issiqlik darajasini birmuncha yumshatish mumkin (suv, soya berish, hududniko'kalamzorlashtirish bilan).

Boshqa tomondan yer yuzasi havoga issiqlikni qaytarish xususiyatiga ega. Dengiz va quruqlik haroratlari bir xil emas bundan tashqari quruqlik yuzasining qizishi ham harxil: ba'zi joylarda dalalar, yaylovlar, ekinzorlar, boshqa joylar o'rmonlar va botqoqliklar, sahrolar mavjud. O'simlik qoplami yerni issiqlik ajratib chiqarishdan asraydi. Bundan tashqari o'simliklar suvni bug'lantiradi va bunga ham issiqlik energiyasi sarflanadi. Natijada o'simlik bilan qoplangan yerlar kunduz kamroq qiziydi. Kunduzgi vaqtda, ayniqsa yozda yer yuzasi qattiq qiziydi, kechasi esa yetarli darajada soviydi.

Ma'lumki, suvning issiqlik yutishi quruqlikdan 2 barobar ko'p, bu esa bir xil sharoitda bir vaqtda quruqlik yuzasi suvga nisbatan 2 baravar ko'proq qizishini

bildiradi. Undan tashqari, suv qizish jarayonida parchalanadi va bunga ham issiqlik energiyasining anchagina qismi sarf bo'ladi. Biroq dengiz yuqori darajada issiqlik yutishi natijasida quruqlikka nisbatan ko'p issiqlik yig'adi va dengiz sathi quruqlik yuzasidan issiqroq bo'ladi. Yer yuzidagi dengiz va okcanlar yuzasining o'rtacha harorati quruqlik yuzasining o'rtacha haroratidan 3° baland bo'ladi.

Yillik havo harorati yerning har xil qismlarida turli. Bn albatta hududninggeografik kengligiga bog'liq. Kenglikka bog'liq holda to'rtta asosiy yillik harorat turi ajratiladi: ekvatorial, tropik, mo'tadil poyas tipi, qutbiy.

Issiq iqlimli hududlarga Osiyoning ko'pgina rayonlari, Avstraliya- eing katta qismi, shimoliy Afrika, AQShning janubiy shtatlari, Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika davlatlari kiradi.

Harorat rejimi radiatsiya balansi bilan uzviy bog'liqdir. Kunlik va yillik o'zgarishlardan qat'iy nazar, shaharlarda havoning o'rtacha harorati, cho'llardan tashqari, qishloq hududlaridan balandroq. Shaharlarda qishloqlarga nisbatan olganda balandroq akkumulatsiyalash - issiqlik balansi kuzatiladi. Granit qabul, qilgan issiqlikning ma'lum foizini yutsa, torf va yaproqlar issiqlikning katta qismini atrof muhitga beradi. Toshli devorlar, yo'l qoplamalari maysalar issiqligidan ancha yuqori bo'lgan issiqlikni o'zida saqlaydi.

Shaharlarda haroratning balandligi sababi shundaki, uning tutun gumbazi yer yuzidan qaytgan radiatsiasini ushlab qoladi; tosh va asfaltli ko'chalar issiqlikni yig'adi; havoning quruqligi bugianish natijasida o'rtacha issiqlik sarfini kamaytiradi. Inson organizmiga issiqlik ta'sirini shaharda yer yuzining qaytarisli xususiyati ham ko'rsatadi, shuningdek binolar devori materiali va inson bilan binoning o'zaro joylashishi ham ta'sir ko'rsatadi.

Qaytgan radiatsiya kattaligi to'g'ridan-to'g'ri nurlanishning intensivligi va yuzadan qaytarish xususiyatiga (albedo) bog'liq.

Qurilish materiallari, tuproq va o'simliklar albedosi (% da) ham yuzaning materiali, rangi, fakturasi va boshqa fizik xususiyatlarga bog'liqdir.

Shuning uchun qurilmalar yuzalari va yo'l qoplamalari qaytgan nurning qo'shimcha manbalari bo'lgan holda shaharda issiqlik bosimini kuchaytiradi va shaharda noqulay sharoit vujudga keladi.

Insolatsiya — bu inson organizmiga issiqlik, yorug'lik va biofizik ta'sir ko'rsatuvchi yer yuzining to'g'ridan-to'g'ri nurlanishidir.

Insonning muhim gigiyenik ahamiyatini hisobga olgan holda (bakterial ta'sir va antiraxit effekt) sanitar me'yorlari qurilma hududi insolatsiyasini zaruriy sharoit sifatida tasdiqlashgan.

Shaharni loyihalash va qurishda ularning hududini shunday taqsimlashadiki, shahar qurilmalari ochiq muhitlar bilan navbatma- navbat kelishi lozim (gazonlar, o'simliklar va suv inshootlari), bu esa havoning almashishi va qizib ketmasligini ta'minlaydi. Haroratning o'zgarishi shuningdek, qurilmalar zichligi hudud relyefiga bog'liq.

Shahar qurilishi sistemasida issiqlik bosimini kamaytirish maqsadida oriyentatsiya, insolatsiya, ventilatsiya, binolar balandligi va zichligi masalalarining o'zaro bog'liqligi hisobga olinishi lozim. Kvartallarni perimetral qurishda va ko'chalar tizimi oriyentatsiyasini quyosh holatidan kelib chiqib loyihalash ma'quldir. Bunday holatda binolarning zaruriy insolatsiyasi ko'chalar kengligi, bino balandligi va ular orasidagi masofaning kattaligiga bog'liq.

Aholi joylarini rejalashtirishning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Masalan, murakkab tumanlar (III—IV iqlimiy qismlar) uchun harorat va nurning ko'pligi xonalarni qizib ketishiga olib keladi va bu tumanlarda xonalarning gorizontning G'arb va Janubiy-G'arb tomonlariga qaratish maqsadga muvofiq emas.

Katta bo'lmagan hudud yoki hududning birqisini iqlimiv sharoitlari majmuasi hudud mikroiqlimini ifodalaydi. Mikroiqlimning asosiy meteorologik ko'rsatgichlariga harorat, namlik, o'rtacha harorat, radiatsiya, havo harakati tezligi, yoritilganlik darajasi va yorug'likning taqsimlanishi kiradi. Mikroiqlimda hudud relyefi, shimoliy yoki janubiy qiyalik, hududning vodiy yoki tog'liligi, grunt va tuproq xususiyatlari, o'simlik qoplami, shahar qurilishi xarakteri, havoning zaharlanish darajasi va boshqalar ko'zga yaqqol tashlanadi. Buning natijasida shahar

hududining mikroiqlimiga tabiiy va suv bilan ta'minlash, ko'kalamzorlashtirish, yuzalarni asfalt bilan qoplash, qurilish zichligi kabi shaharsozlik omillarining o'zaro ta'siri natijasi sifatida qaraladi. Iqlimiy omillar yil davomida doimiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun masalan, tropikda yashovchi inson organizmida moslashish fasllar almashib turadigan hududda yashovchi, organizmida himoya xususiyatlari o'zgarib turadigan inson organizmi kabi kechmaydi.

Mikroiqlim sharoitlarini, ya'ni biror hududning cheklangan doirasidagi iqlimiy hodisalarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega.

Shaharlarning mikroiqlimi shahar tashqarisidagi hududlar iqlimidan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- shaharlarda qish va yozda issiqroq, harorat yuqoriroq;
- havoning absolut va nisbiy namligi kamroq;
- shamolning tezligi kamroq (shamol ko'chalar bo'yicha esib, yo'nalishini o'zgartiradi va o'ramalar paydo qiladi):

- quyosh radiatsiyasi sharoitlari yomonroq, yorug'lik va ultrallolet radiatsiyasi kuchsizroq: shaharlar havosi chang va tutun zarralari bilan ifloslangani tufayli atmosferaning tiniqligi kamroq.

- Mikroiqlim, ayniqsa, bolalar uchun sezilarlidir, chunki havoning yer usti qatlami (60 sm yuqorida) butunlay boshqa ko'rsatkichlarga ega va sanitar sharoitlarga ko'ra ancha og'ir bo'ladi.

Shaharning, tumanning mikroiqlimi imoratlarning qavatini, ularning orasidagi oraliqni to'g'ri tanlash va kvartallarni shamollatish yo'li bilan o'zgartirilishi va yaxshilanishi mumkin.

Mikroiqlimni turar joy hududlariga kiritilgan, hatto kichik suv havzalari, yer yuzasining ahvoli (quruq yer, asfalt qoplama, tosh qoplama, gulzor va o'tloqlar), yashil o'simliklar va daraxtlar turini tanlash anchagina o'zgartirishi mumkin, ularning ba'zilar namlikni yutsa, ba'zilar esa, tarkibidagi suvni bug'lantirib, atrof-muhit haroratini pasaytiradi.

Namlik. Atmosferaning quyi qatlamidagi havoda yer yuzidan bug'lanuvchi suv bug'lari mavjud. Bug'lanish tezligi birinchi navbatda harorat va shamolga bog'liq.

Kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tropiklarda okean yuzidan yil davomida 3 m gacha qalinlikda suv qatlami bug'lanadi. Biroq havo faqat ma'lum miqdorda suv bug'larini qabul qilishi mumkin, me'yordan oshgan bug'lanish havoni o'ta darajada to'yintirib yuboradi. Ma'lumki, to'yingan havoni qizdirsa, u yana qo'shimcha suv bug'larini qabul qila oladi, aksincha, sovitilsa, kondensatsiya hosil bo'ladi, ya'ni suv bug'lari quyuqlashadi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, havoning turli miqdordagi maksimal suv bug'larini qabul qilishi va o'zida ushlab turishi haroratga to'g'ridan- to'g'ri bog'liq ekan.


Shamol. Havo massasining gorizonta yo'nalishda harakatlanishi shamol deyiladi. Shamolning asosiy yo'nalishi (eng ko'p esadigan tomon) — turar-joy hududi joyini tanlash va unda funksional zonalarini joylashtirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda hududning relyefi nafaqat issiqlik xarakteriga, balki shamol tezligiga ham ta'sir qilishi hisobga olinadi. Agar issiq hududlarda shaharsozlik chora-tadbirlari shamolsizlikka qarshi qaratilsa, issiq quruq iqlimli joylarda barcha omillar shamolga qaratilgan.

Havoning harakat tezligi ko'p hollarda yer yuzining xususiyatlariga bog'liq. Hudud xarakteri, o'simliklar va qurilmalar havo massasi uchun har xil to'siqlar hisoblanadi. Shu sababli yer yuzida balandlik oshgan sari havo harakati tezligi oshib boradi.

Issiq quruq shamolli garmsellar, odatda, yuqori harorat va quruqlikni olib keladi. Ularning yuqori harorati ularning issiq hududlardan esishi va yuqori darajada changlanishiga bog'liq (chang zarralari quyosh nurida qiziydi va garmsellarning haroratini ko'taradi). Garmsellarning harorati 40° S ga va undan yuqori ko'tarilishi mumkin. Garmsellar Osiyo cho'llaridan issiqlik va quruqlikni olib keladi, degan fikrlar iqlimshunoslar tomonidan rad etilgan.

Quruq hududlar shaharsozligida shamol rejimidan foydalanish juda muhim. Bunda shamoldan himoya qiluvchi ko'kalamzor hududlar asosiy shamol yo'nalishiga ko'ndalang, nam hududlarda bo'ylama joylashtiriladi: bu havo almashinishi va qurilmalar aerosiyasiga sharoit yaratib beradi.

Shamollarning o'rtacha yillik tezligi va qaytalashi doimiydir va «shamollar guli» deb atalgan grafikni 8 yoki 16 romb — dunyoning asosiy tomonlari bo'yicha tuzish imkonini beradi. Bunda ma'lum bir masshtabda shamol yo'nalishining qaytarilish birligini yoki shamolning o'rtacha va maksimal tezligi birliklarini har bir rombgga mos holda vektor yo'nalishida qo'yiladi. Vektorlarning oxirgi nuqtalarini chiziqlar bilan tutashtiriladi. Shamol guli berilgan hudud uchun shamol qaytarilishlari natijalariga asoslanib, yilning eng issiq oy va eng issiq choragida olinadi. Buning sababi - ushbu vaqtda sanitar-gigiyenik masalalarda eng katta



noqulayliklar yuzaga keladi: kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar ko'p tarqaladi, sanoat muassasalari atrofida havo muhitining ekologik sharoiti yomonlashadi. Hukmron shamol yo'nalishi shamol gulining markaziga yo'nalgan eng katta vektorga mos keladi.

1-rasm Shamol yo'nalishi (shamol qaytarilishi va kuchining vektorli diagrammasi).

Tabiiy landshaftni baholash. Tabiiy landshaftning asosiy komponentlariga quyidagilar kiradi:

- gidrogeologik sharoitlar;
- geologik sharoitlar;
- relyef,
- suv havzalari va suv tarmoqlari;
- yer osti suvlari;
- tuproq va ko'kalamzorlar;
- tirik tabiat - hayvonot va o'simlik dunyosi.

Muhandis-geologik kartada har xil relyef sharoitidagi, har xil yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan, grunt tarkibidagi suvning yuqoriligi va toshqinlar darajasi har xil hududlar, shuningdek, fizik-geologik jarayonlar ko'rsatilgan hududlar

(cho'kish, jarliklarning o'pirilishi, seysmik harakatlar, harakatlanuvchan qumlar va h.k.) va sanoat ahamiyatidagi foydali qazilmalar o'rni ajratiladi.

Oxirgi paytda qurilish uchun hududlarning yetishmasligi tufayli, ilgari yaroqsiz deb topilgan yerlardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, qiya relyefda terrasali qurilish qilish, yer osti garajlari va omborlar qurish mumkin. Karerlar, terrikonlar ustiga tuproq qatlami yotqizib, u yerlarda jamoat bog'lari, daryolarning o'zanlarida esa, dam olish hududlari tashkil etish mumkin.

Hududni me'moriy-landshaft baholash. Shaharning rejaviy tuzilishi, qurilmalar va ko'kalamzor hududlar kompozitsiyasiga ijodiy yondoshish, shaharning me'moriy-badiiy ko'rinishini shakllantirishni belgilab beruvchi hududiy xususiyatlarni hududning me'moriy-landshaft tahlili aniqlab beradi. Qurilish hududini me'moriy-landshaft o'rganish jihatdan shaharning me'moriy-loyihaviy kompozitsiyasini, uning me'moriy ansambllarini yaratishda rejaviy tuzilish va hududning tabiiy xususiyatlarini o'zaro uyg'unlashtirish uchun zarurdir. Bunda landschaft birliklarining chegaralari aniqlanadi (landshaft va podlandshaftlar), hududning perspektiv ko'rinishlari uchun asosiy ko'rish nuqtalari belgilanadi, landschaft elementlarining turli-tumanligi tahlil qilinadi (ko'kalamzor, suv va ochiq hududlarning uyg'unligi, yilning har xil faslida o'simlik qoplaminin rangi va h.k.).

Arxitektura amaliyotida landschaftlarning tasnifi va turlarga ajratish metodikasi ishlab chiqilgan. Landschaft-estetik jihatdan o'rganib chiqishda to'rtta asosiy landschaftga bo'linadi. Bular o'rmon, yaylov- cho'l, daryo bo'yida va madaniylashtirilgan (ekiladigan) ekin turlari mavjud bo'lgan landashftlar. O'z navbatida landschaftlar yopiq, yarimochiq va ochiq landschaftlarga ajratiladi.

Hududning alohida ajralib turadigan landschaft yerlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

O'ziga xos relyef va o'simlik qoplamiga ega bo'lgan yerlar;

O'ziga xos me'moriy rejaviy ko'rinishga yoki qurilmalar hududining tashkil etilishiga ega bo'lgan yerlar;

Chiroyli manzarali ko'rinishlarga ega (ko'rish nuqtalariga) bo'lgan hududlar; parklar, oroldagi qimmatli o'rmonlar, me'moriy yodgorliklar.

Shahar hududini tadqiq etishda asosiy tabiat omillarining joylashgan o'ri, o'lehami, shaklini aniqlash lozim. O'simliklar bilan qoplangan hududga o'rmon va ko'kalamzor hududlarni nio'ljallash inaqsadga muvollq. Ko'kalamzor hududlarning tabiiy tarkibi va sitat darajasi aniqlanishi lozim.

Umumlashtirilgan shaklda relyef baland-pastligi, vodiy va jarliklar, ajratuvchi hududlar, tekis uchastkalar va botqoqliklar, barcha suv havzalari ko'rsatilishi va o'zlashtirish uchun qulay va noqulay hududlar ajratilishi kerak.

Qimmatli landshaft sifatlariga ega bo'lgan hududlarni ko'rsatish va hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bunday hududlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- shahar silueti yoki panoramasini belgilovchi landshaftlar;
- suv havzalari, shahar parklari va bog'larini loyihalash uchun qulay bo'lgan hududlar;
- tabiiy sharoitlarni boyitish uchun salmoqli imkoniyatga ega bo'lgan landshaftlar;
- tuzlilik darajasi yuqori yoki boshqa ekin ekish uchun noqulay hududlardagi ekin ekishga yaroqli tuproqqa ega bo'lgan hududlar;
- quruq hududlarda yuqoriroq namlik darajasi va nisbatan namlangan tuproqqa ega bo'lgan hududlar saqlab qolinishi lozim.

Hududning afzal tomonlari bilan birga estetik jihatdan ko'rimsiz hududlar va obyektlar aniqlanib, keyingi to'g'rilanishi uchun imkoniyatlar o'rganib chiqiladi va rckonstruksiya ishlarini (ko'kalamzorlashtirish, jarliklarni mustahkamlash, ortiqcha suvlarni quritish yoki suv bilan ta'minlash) amalga oshirish ko'zda tutiladi. Hududning tabiiy sharoillarini tadqiq qilish jaiayonida olingan materiallarni o'rganib chiqib, shaharni me'moriy landshaft nuqtayi nazarida baholashning yuqorida keltirilgan jihatlari aks etgan mavjud landshaft sxemasi tuziladi.(2- rasim)



- sanoat hududlari
- aholi yashash joylari
- qishloq xo'jalik yerlari
- o'rmonlar
- botqoqliklar
- yuqori voltli liniya hududi
- temir yo'l o'tkazish chizig'i
- 0 dan 10%gacha qiyalikdagi hudud
- 10 dan 20%gacha qiyalikdagi hudud
- g'adir-budir mikrorelyefli hudud
- sohilbo'yi chizig'ini qayta ishlash hududi
- sanitar-himoya hududi

B



- yaxshi insolatsiya sharoitlariga ega bo'lgan hudud
- yaxshi insolatsiyalanadigan hudud
- yomon insolatsiyalanadigan hudud
- o'rmonlar

2-rasm Yashash hududi va dam olish hududini joylashtirish uchun hududni kompleks shaharsozlik tahlili:

A- muhandis-geologik sharoitlar, sanitar-gigiyenik holat; B-hududni mikroiqlimiy baholash; D-hududni arxitekturaviy-landshaft baholash; E— hududning qurilishga yaroqliligi darajasini yakuniy baholash.

ME'MORIY REJAVIY

BO'LIMI

Rahbar: Rasulov Nigmat Fayzullaevich_____

Diplomant: Abdusalomov Farxodbek Ziyoyiddin o'g'li _____

ASOSIY QISM

1.ME'MORIY REJAVIY YECHIM

1.1. Shahar markazlarining tarxii kompozitsiyasi

1.2. Oltinko'l tumaninig tabiiy-iqlimiy sharoiti, aholini o'sish sharoit (demografiya).

1.3. Tumanning bugungi holati va loyihaviy taklif.

1.4. Loyihani funksional zonashtirish.

1.5. Loyihaviy yechim.

1.1. Tuman markazlarining tarxiy kompozitsiyasi

Tuman tizimi - bu yagona shahar, ya'ni shahar yoki shaharlar guruhi sifatida funksiyallashgan hududiy-hajmiy tizim (shahar, aglomeratsiya, joylashtirishning guruhli tizimi).


Mahalla — kichik shaharsozlik bo'linmalari.

Bosh reja — obyekt rejasining asosiy chizmasi bo'lib, loyihachining fikrlarini ifodalaydi va ishchi loyiha uchun asos hisoblaniladi.

Tuman bosh tarhi — shaharning kelajak me'moriy-kompozitsion, funksional-makoniyl, transportmuhandislik rivojlanishini begilab beruvchi loyihaviy hujjat.

Tuman markazlarining tarxiy kompozitsiyasi uning shaharsozlik profili kattaligi, tabiiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Markazlar o'zining xarakteri va tarkibiga ko'ra ma'muriy-xo'jalik, madaniy-maishiy muassasa va korxonalarni universal ixtisoslashgan do'konlarni



3-rasm Markazlar o'zining xarakteri va tarkibiga ajratilishi

birlashtiruvchi kompleks yoki ularda qandaydir alohida xizmat ko'rsatish turi muassasalari joylashgan ixtisoslashgan markazlar bo'lishi mumkin.

Barcha xil jamoat markazlari hududlarining o'lchamlari quyidagi omillarga bog'liq: tarkibiy tuzilma kattaligiga;

— Tuman profiliga (masalan, sog'liqni saqlash va madaniyat obyektlari ko'proq); iqlimiy sharoitlarga (shimoliy tumanlarda markazlar ancha ixcham, janubiy tumanlarda ko'kalamzor hududlarning nisbiy hissasi kattaroq);

— aholi joylashuvi tizimidagi ahamiyatiga (tayanch shaharlarda kelayotgan aholiga xizmat ko'rsatishni hisobga olib shakllangan markazlar ancha rivojlangan);

— Tumanning umumiy kattaligiga.

Tuman markazining umumiy kattaligi bitta odamga 2—3 m² hisobidanolinadi Umum shahar markazida xizmat ko'rsatish muassasalari va korxonalari hududini quyidagicha taqsimlash tavsiya etiladi:

- ma'muriy-ish yuritish qismi — 10%;
- piadaniy-oqartuv qismi — 80%; ,
- savdo-maishiy qismi — 8%;
- kommunal qismi — 2%.

Tuman markazining tuzilmasi va vazifalari.


Kichik shaharlarda sanoat korxonalarining joylashishi

Tumanning jamoat markazi o'zida yetarli darajada murakkab rejaviy tizimni mujassam etuvchi shahar rejaviy tuzilmasining muhim elementi hisoblanadi. Zamonaviy shaharning jamoat markazi deb, yagona rejaviy va arxitekturaviy-hajmiy kenglik tizimiga birlashgan asosiy jamoat binolari joylashgan hudud tushuniladi. Bu hududga aholiga epizodik xizmat ko'rsatish vazifalarini bajaruvchi bosh ma'muriy, madaniy- maishiy, transport, kommunal-xo'jalik, savdo va boshqa muhim muassasa binolari joylashadi.

Tumanrning jamoat markazi shahardagi barcha tarkibiy qismlarni bog'lovchi muhim tugun hisoblanadi. Shaharning ijtimoiy hayoti madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasa va markazlari tizimining shakllanishiga bog'liqdir.

Tuman jamoat markazlarining tuzilmasi uning ma'muriy ahamiyatining ko'lamiga va xalq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish tizimiga bog'liq. Shaharning o'sib borishi bilan undagi jamoat markazlarining tuzilmasi hajmi jihatdan rivojlanadi va murakkablashadi.

Davriy va kundalik xizmat ko'rsatish funksiyalarini bir vaqtning o'zida bajaradigan kichik shahar, odatda, ixcham jamoat markaziga ega bo'ladi. Agar kichik shaharning xizmat ko'rsatish maykaziga qishloq xo'jaligi tumani hududiy jihatdan tegishli bo'lsa u holda bu markazdagi muassasalarni tashkil etish va hisoblashlula aholining qo'shilishi hisobga olinadi.



4-rasm. Shaharni loyihalashda jamoat markazlarining joylashishi sxemasi:

A— kichik shahar; B-o'rta shahar; D-yirik shahar.

Katta va yirik shaharlarda markazlar tizimi hajmiy jihatdan rivojlanadi: turar-joy va rejalashtirilgan rayonlar hamda mehnat qilinadigan va dam olinadigan zonalaridagi markazlar shakllanadi. Yirik shaharda markazlarning rivojlangan hajm tizimi mavjud bo'lib, uning bosh elementi — o'z hududi bo'yicha

shaharning keng hisoblangan va ma'muriy-ijtimoiy jihatdan salmoqli funksiyani bajaruvchi markaziy yadroni o'z ichiga olgan umumshahar markazidir. Yirik shaharning markaziy qismi nafaqat jamoat binolarini, balki qo'yilgan ijtimoiy talablarga muvofiq ravishda qurilgan turar-joy binolarining salmoqli qismini ham o'z ichiga oladi.

Shahar o'sishiga bog'liq holda yangi shaharlar markazlarining rivojlanishi.

- 450—500 ming kishilik shahar;
- 300 ming kishilik shahar;
- 150—200 ming kishilik shahar.

Yirik shaharlarning markazlari viloyat va respublika tizimining ma'muriy markazi hisoblanib, u aholiga har tomonlama xizmat ko'rsatish funksiyasini bajaradi va aholining markaziy shaharga qatnashi uchun zarur bo'lgan barcha qulaylik hamda shart-sharoitlarni yaratib beradi. Yirik shahar markazlarining tizimi bosh umumshahar markazi bilan bir qatorda, umumshahar va umumaholiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan markazlarni, rejalashtirilayotgan tumanlar, turar-joy va kichik tumanlar, mehnat qilish va dam olish zonalaridagi markazlarni ham o'z ichiga oladi.

Funksional tarkibiga ko'ra jamoat markazlari ko'p profilli va ixtisoslashgan bo'lishi mumkin. Shaharning funksional profili shahar jamoat markazining tarkibi va tuzilmasida o'z aksini topadi.



5-rasm Har xil loyihaviy tuzilmalarda shahar ahamiyatidagi jamoat markazlarini joylashtirish misoli.

Shahar hududi ko'pincha funksional hududlar bo'yicha: ma'muriy, madaniy-maishiy, savdo-sotiqqa mo'ljallangan muassasalar joylashadigan hududlarga bo'linishi mumkin. Iltirorl, shaharlarda va turistlik markazlarida davolash-sog'lomlashtirish, madaniy-maishiy va ko'ngil ochishga mo'ljallangan hududlar rivojlanadi. Ilmiy va ma'lumot beruvchi markazlar majmuasiga ega bo'lgan shaharlarda shaharning jamoat markazi ko'p hollarda ilmiy (ilmiy tekshirish, loyihalash) hamda o'quv (oliy va o'rta maxsus o'quv) yurtlari muassasalarini o'z ichiga oladi.

Shaharning jamoat markazi shahar aholisi hamda shahar atrofidagi tumanlar aholisiga xizmat qilishni amalga oshiradi. Shaharlararo ahamiyatga nafaqat yirik shaharlardagi markazlar, balki kichik va o'rta kattalikdagi shaharlardagi markazlar ham ega bo'lishi mumkin .

Yirik shaharda jamoat markazi o'z hududi bo'yicha keng hudud sifatida shakllanadi va unda turar-joy hududlari ham ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Shahar markazida joylashgan turar-joy binolari o'zida murakkab masalalarni mujassam etadi. Avtomobil harakati hamda binolarning zich joylashganligi oqibatida havoning ifloslanishi va shovqinning yuzaga kelishi tufayli bu yerda qoniqarli hayot sharoitlarini ta'minlash oson kechmaydi. Biroq shahar markazidagi turar-joy binolari ko'pincha markazning kechqurungi paytda jonlanishini ko'zlagan holda loyihalanadi. Ammo markazni unda yashovchi aholi hayot sharoitining yomonlashuvi evaziga «jonlashtirish mantiqan to'g'ri emas. Kechki dam olish vaqtida shahar markazining qiyofasini jonlashtirishga ko'ngil ochish muassasalari, qahvaxona va boshqa shunga o'xshash xizmat ko'rsatish muassasalarini ochish orqali erishish mumkin. Lekin bu shahar markazi turar-joy binolaridan batamom xoli bo'ladi, degani emas. Shahar markaziga yashash joylarining uchta turini: vaqtincha yashaydigan jftylar — mehmonxonalar, pansionatlar, yotoqxonalar va shunga o'xshash maktab, bolalar bog'chasiga ehtiyoj bo'lmaydigan yashash joylarini; markaz hududiga xizmat yuzasidan doimiy ravishda keladigan ma'muriy va texnik personallar uchun xizmat kvartiralarining mehnat qilish bilan bog'langan

yashash joylari, masalan, studiyalar, ustaxonalar va shunga o'xshash binolarni qurish mumkin va ularning markazga joylashtirilishi ancha inaqsadga muvotiq, deb hisoblaniladi.

Markazning rejaviy tuzilmasi.

Tuman markazining hududi jamoat binolari, yashil hududlar, maydonlar, piyodalar yo'laklari, mashinalar o'tish yo'llari va ular turadigan joylar bilan shakllantiriladi. Markaz hududining 50% ini transport va piyodalar yo'llari, yashil hududlar tashkil etadi. Umuman olganda, umumshahar markazining hududi har bir yashovchi uchun 3-5 kv.metrni tashkil etadi (sport majmualari bundan mustasno).

Sanoat tumanida ko'rsatiladigan xizmatlarni umumiy shahar va rayonlardagi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimlari bilan kooperatsiyalash — bu shaharning aholi yashaydigan hududlarini ishlab chiqarish zararlari ta'siridan xoli etish (hech bo'lmaganda ularning ta'sirini minimumga tushirish) demakdir.

Markazni transport bilan ta'minlash.

Shaharning markaziy tumanida ko'pgina muassasalar: savdo tashkilotlarining ma'muriy binolari va boshqa ommaviy tashrif obyektlari joylashtiriladi.

Shuning uchun shaharning markaziga qatnov shaharning boshqa rayonlariga qaraganda yuqori bo'ladi. Bundan kelib chiqib;

- shahar magistrallari tizimi shahar markazidan transport tranzit oqimlarini chetga olish lozim;

- ommaviy yo'lovchi transporti tarmoqlari ko'cha tarmoqlari zichligiga boshqa tumanlarga qaraganda yuqori bo'lishi lozim;

- markaziy qism avtomobil to'xtash joylari bilan ta'minlanishi zarur.


Markazni to'xtash joylari bilan ta'minlash mumkin bo'lmagan holda uni markaziy qism chekkasida tashkil etish mumkin. To'xtash joylaridan kerakli joygacha ommaviy yo'lovchi transportida boriladi. Shaharning barcha rayonlaridan markazgacha ommaviy yo'lovchi transportida borish 30—45 daqiqadan oshmasligi lozim. Sharoitga qarab bir transportdan ikkinchi transportga o'tirish shaharning

markaziy yadrosidan ancha uzoqlashtiriladi. Ommaviy qatnov obyektlari transport bilan ta'minlanishi zarur. Boshqa tomondan bevosita transportga yaqin maydonlar (ayniqsa metro) qimmatli sanaladi.

Ma'muriy, savdo va sport komplekslarini transport bilan ta'minlash.

Ular asosiy magistrallarda metro bekatlariga yaqinroq qilib joshlashtirilishi zarur, majmualardan transportlargacha qulay piyoda yo'llari bo'lishi lozim. To'xtash joylari 300 m dan oshmasligi kerak. Binolar qizil chiziqqa nisbatan ichkariroqda joylashadi. To'xtash joylari yer ostida, ko'p qavatli, ishchilarga alohida, kelib ketuvchilarga alohida tashkil etiladi. Savdo tashkilotlari uchun alohida kirish, tovarni olib kelish va tushirish maydonchalari, platformalar, yer ostki maydonchalar joylashtiriladi.

Turar-joy qurilmalari umumiy kompozitsion yechimining shahar tumanining joylashishi va hududining kattaligiga bog'liqligi:




6-rasm. Shahar markazini funksional hududlarga ajratish.

Sport va ko'rgazma majmualari, odatda, chetroqda bo'ladi. Shuning uchun ba'zi hollarda kelib-ketish ta'minlanadi. Keluvchilarni bir necha chiqish joylariga yoyish zarur, bunday hollarda ichki transportdan foydalaniladi.

Mehmonxonalar markaz bilan yaqin bog'lanishi kerak. To'xtash joylari kelib ketguvchilar uchun alohida, xizmatchilar va xo'jalik ehtiyojlar uchun alohida

beriladi. Shaharning markaziy qismidagi yo'lovchilar oqimi eng ko'p to'plangan vokzal, port, bozorlardagi to'xtash joylariga alohida e'tibor berish kerak. Quyida shaharlar sxemasiga misollar keltrilgan.



7-rasm Markazning joylashishi uchun misollar

1.2. Oltinko'l tumaninig tabiiy-iqlimiy sharoiti, aholini o'sish sharoiti (demografiya).

Oltinko'l tumani O'zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati tarkibining ma'muriy qismi hisoblanadi. Ma'muriy markazi Oltinko'l hisoblanadi.

Andijon viloyati shimolida joylashgan. 1939 yil 10 fevralda tashkil etilgan. Oltinko'l tumani Andijon viloyatining shimolida joylashgan bo'lib, G'arb va SHimol tomonida Baliqchi tumani, Shimoliy-Sharq tomonidan Andijon tumani, Sharq tomonidan Andijon shaxri, Janubiy-Sharq tomonidan Asaka tumani, G'arb tomonidan Shaxrixon tumani bilan chegaradosh.

Oltinko'l tumani relyefi asosan pasttekislik, qir va adirlardan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Iyulning o'rtacha xarorati 25—28°, yanvarniki minus 5 – 7 daraja atrofida. Ayrim xollarda yoz oylarida xarorat 42—43 darajani, yanvarda esa minus 15 – 18 daraja sovuq bo'lishi kuzatiladi. Vegetatsiya davri 160—180 kun. Yiliga o'rtacha 225 mm yog'in tushadi. Oltinko'l tumanijanubida Katta Farg'ona kanali, shimoltomonidan Qoradaryo, bulardan tashqari tuman xududidan tumanlararo Kollektor - Asaka tashlamasi, Ulug'nor kanali oqib o'tadi. Tuman adir qismining tuprog'i arziq, qolgan erlarda bo'z tuproq. Baxorda adirlar efemer o'simliklar bilan qoplanadi. Ekin ekilmaydigan erlarda shuvoq, sho'ra o'sadi. Yovvoyi xayvonlar kam uchraydi, sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar bor.

Axolisining aksari qismi o'zbeklar; rus, tojik, uyg'ur, tatar va boshqa millat vakillari xam bor. 1 km² ga 607 kishi to'g'ri keladi. Aholisining aksari qismi o'zbeklar (99,7%). 1 km² ga o'rtacha 609 kishi to'g'ri keladi.

Tumanda jami 1299 ta kichik biznes subektlari ro'yhatdan o'tgan bo'lib, shundan 78 tasi kichik korxona, 1221 tasi mikrofirmalardir. Kichik biznes subektlarining sanoatda 80,9%, Qishloq xo'jaligida 99,8%, Qurulishda 95,7%, chakana savdo 98,5% tashkil etdi. Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subektlari 1149 tani tashkil etib, jami royxatdagi subektlarni 88,5% ni tashkil etadi.

Tumanda 1ta yirik sanoat korxonasi “ Andijon – paxta” AJ faoliyat yuritib kelmoqda

Markazni ikkiga bo'lib turuvchi Andijonva Namangan viloyatlari bilan bog'lab turuvchi tranzit avtomobil' yo'li o'tgan. Markazdagi ishlab chiqarish korxonalarining aksariyati shimoli-sharq va janub tomonga qaratilgan. Bu esa ishlab chiqarish zonasining o'z vaqtida shamol yunalishiga va shahar qurilish omillariga tugri kelishidan dalolatdir

1 –jadval

Axolining tabiiy o'sishi

Yillar	Tug'ilganlar soni (kishi)	Vafot etganlar soni (kishi)	Axolining tabiiy o'sishi (kishi)
1997 y.	2764	603	2161
1998 y.	2752	650	2102
1999 y.	2469	589	1880
2000 y.	2337	600	1737
2001 y.	2401	629	1772
2002 y.	2627	620	2007
2003 y.	2525	645	1880
2004 y.	2793	602	2191
2005 y.	2814	633	2181
2006 y.	2692	636	2056
2007 y.	3378	577	2801
2008 y.	3657	652	3005
2009 y.	3407	659	2748
2010 y.	3527	727	2800
2011 y.	3111	766	2345
2012 y.	3268	623	2645
2013 y.	3775	755	3020
2014 y.	3962	764	3198
2015 y.	3827	851	2976

9 yil ichida aholi 1,0% ga o'sishini ko'rish mumkin. 2002 yildan boshlab axolining o'sishida o'zgarish bo'lmagan. Bu esa migratsiya jarayoni bilan bog'liq. Xozirgi vaqtda bu masalada turgunlik kutilmoqda va axolining o'sishi davom etadi.

Oltinko'l tumani asosan 1 qavatli turar joy binolari bilan va 2 qavatli turar joylar qurilgan. Ishlab chiqarish sanoatining asosiy ustunligini oziq – ovqat va metall ishlab chiqarish, bundan tashqari qishloq xo'jaligi tashkil qiladi.

Oltinko'l markazi gaz va elektr tarmog'i bilan ta'minlangan. Ichimlik suvi markazda chuqur quduqlar orqali ta'minlanadi.

Iqlimiy tavsif QMQ 2.01.01- 94 meteorologik muassasa ma'lumotlari asosida keltirilgan. Markaz keskin kontinental' iqlimli, yoz oylari issiq va quruq. Maksimal' harorat iyul oyiga to'g'ri keladi, absolyut maksimum – $44,5^{\circ}$. qish oylari sovuq, eng past harorat yanvar oyiga tugri keladi, absolyut minimum – $29,5^{\circ}$.

Yilning o'rtacha havo harorati $+13,6^{\circ}$.

Qor qoplami uncha ko'p emas, o'rtacha 12 sm ni tashkil qiladi. Qor qoplami bilan bo'ladigan kunlarning o'rtacha qiymati 43 kun. Eng sovuq havoning o'rtacha minimal nisbiy namligi – 55%, eng issiq havoniki – 21%. Yilning o'rtacha nisbiy namlik qiymati – 58%.

Qor, yomgir va kam uchraydigan do'lning yillik o'rtacha qiymati 412,7 mm ni tashkil etadi. Yog'ingarchilikning asosiy massasi yilning sovuq davri ya'ni oktyabr oyidan may oylariga to'g'ri keladi. Bir sutkadagi yog'ingarchilikning maksimal miqdori 50 mm ni tashkil etadi.

Oltinko'l tumanida shamol asosiy iqlimiy omil hisoblanadi. Tumanda asosan shimoli-sharqiy va sharqiy tomondan 1,4-2,1 m/s tezlikda shamol esadi. Yanvar oyidagi o'rtacha shamol tezligi – 1,6 m/s ga teng. Maksimal tezlik – 2,1 m/s dir. Issiq davrda shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimoli-G'arbiy tomondan 1,2-2,1 m/s tezligida shamol esadi. Iyul oyidagi o'rtacha shamol tezligi 1,6 m/s ga teng. Changli bo'ron va chang ug'itli kunlar soni – 5 ga teng.

Tuman gidrografik tavsifi:

Markazning gidrografiya uning shimol tomondan utadigan Katta Farg'ona suv kanali bilan ifodalanadi. Suv oqimi shimoli-sharqiy tomon orqali janubi-g'arbiy tomon qarab oqadi va Qora daryoga borib quyiladi.

Katta Farg'ona kanali Namangan viloyatining shimolida joylashgan Norin daryosidan kelib, Oltinko'l tumanining shimoliy-g'arbiy qismini kesib o'tib suvni asosiy o'zanidan tarmoqlab chiqib katta magistral kanalni tashkil qiladi. Uning tuman markazi maydonidagi o'zunligi 14,27 km ni va kengligi 28-35 m ni tashkil qiladi. Uning kesib qurilgandagi o'lchovi belgisi 555,0-551,0 m ga tengdir. Oqimda egri-bugrilik mavjud. Suvning o'rtacha yillik harajati 20 dan 70 m³/s ga teng, maksimum 300 m³/s dir. Suvi toza.

Oqim kengligi 5 m dan 10 m gacha. Qirqimdagi o'lcho'vi 530,0 dan 514,0 m gacha. Suv harajati uncha ko'p bo'lmagan 2-3 m³/s, mumkin bo'lgan maksimum 15 m³/s gacha (bu uning o'tkazish kobiliyati). Suv maishiy sharoit va ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslanadi.

Axolini o'sish sharoiti (demografiya):

- shahar statistika bo'limi ma'lumotlari asosida olingan 01.01.2016 yil uchun,
- mavjud aholi soni taxminan 185000;
- taklif etilayotgan Loyiha doirasida 24000;

2-Jadval

Izboskan tumani markazining mavjud chegaradagi zamonaviy demografik strukturasi

No	Ko'rsatqichlar	Jami	Erkaklar	Ayollar
	01.01.16 yil holatiga axoli soni	163,2	81,3	81,9

Shu jumladan yosh bo'yicha:

-	0-1 yoshgacha	2,9	1,4	1,5
-	1-6 yoshgacha	16,8	8,3	8,5
-	6-12 yoshgacha	16	8,1	7,9

-	12-16 yoshgacha	12,9	6,4	6,5
-	16-18 yoshgacha	7,5	3,8	3,7
-	18-25 yoshgacha	24,3	12,1	12,2
-	25-30 yoshgacha	16,2	7,9	8,3
-	30-60 yoshgacha	57,2	28,5	28,7
-	60 yosh va undan yuqori	9,4	4,8	4,6

Andijon viloyati va Oltinko'l markazining turar joy fondining zamonaviy xolatini o'rganish natijalari:

- tumanda yangi turar joy qurilish sur'atining tezkor pasayishi, qurilish bazasining kerakli darajada rivojlanmaganligi sababli ko'p qavatli turar joy binolaring qurilishi to'xtatilganligi, obodonlashtirish darajasi pastligi, shinamlik yo'qligi;

- eskirgan turar joy fondining yangisiga alishtirmaganligi, bundan tashqari o'z xolicha axoli tomonidan amalga oshirilayotganligi;

- qurilishda muxandislik ishlari darajasining pastligi.

1.3. Tumanning bugungi holati va loyihaviy taklif.

Oltinko'l tumani markazi bo'lib hisoblanadigan shahar tipidagi Oltinko'l ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik yo'nalishiga ega. Qishloq xo'jaligi asosan sabzavot va sut maxsulotlaridan, uzumzor va bog'chilikdan iboratdir.

Markaz o'zining vazifasini ma'muriy jixatdan bajaradi, ko'p funktsional ijtimoiy – iqtisodiy strkukturaga ega.

Iqtisodiy jixatdan axoliga xizmat ko'rsatish va tuman xo'jaligi asosiy faoliyati hisoblanadi.

Tuman markazi Andijon viloyatidan 16 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, shimol tomondan egri o'zanga ega bo'lgan Qoradaryo, sharq tomondan Farg'ona kanali joylashgan.

Hozirgi vaqtda markaz maydoni aniq planlashtirish tashkiliy tuzimiga ega emas. Yaxlit arxitektura planlashtirish uchun Andijon-Oltinko'l-Andijon tranzit yo'li markazni ikkiga bo'lib turuvchi muhim to'siq bo'lib hisoblanadi. Shimol tomondan asosan rejali bir qavatli hovli joylar bilan qurilgan. Ikkita sektsiya turdagi ikki qavatli turar joy binolari markazning G'arb va sharqiy chegara tomonlarida mavjud. Avtorassa chetlarida ma'muriy – xo'jalik ob'ektlari, bir qavatli turar joy binolari joylashgan. Bu esa o'z o'rnida markaziy ko'cha arxitektura ko'rinishini muayyan shaklga keltirmaydi. Binolarning bir qismi Poytug'shox ko'chasida qizil chizik ichida kolgan. Poytug'shox ko'chasini respublika miqyosidagi yo'l P-122 darajasida qarasak, uning yo'kasibo'ylab qurilgan turar joylar normativ talablarga zid kelishini ko'rish mumkin.

Markazni janub tomonida ikkita 2-3 qavatli kichik turar joy tumani mavjud. Shimoliy-g'arbtomonda mozar mavjud. Markazning ma'muriy markazi ma'muriy-xo'jalik ob'ektlari bilan Oltinko'l ko'chasida joylashgan. Bundan tashqari savdo sotik majmualarini bir qismi va umumiy ovqatlanish muassasalari ham joylashgan. Oltinko'l ko'chasidagi qurilmalar aniq liniyaga ega emas, asosan bir qavatli hovli joyli uylar, ulardan aksariyati eskirgan va buzib tashlashga yoki qayta ta'mirlashga muxtoj. Ko'cha yoqasidagi piyodalar yo'laklari tor va tartibsiz, qaysidir qismlarida umuman mavjud emas. Aksariyat savdo sotik va umumiy ovqatlanish muassasalari avtomobillarga tuxtash joyiga ega emas. Yo'l yokasi bo'ylab tashkil qilingan avtomobillar tuxtash joylari avariya sharoitini keltirib chiqarishi mumkin holatlar mavjud.

Ishlab chiqarish zonalari 3 ta guruhga bo'linadi – shimoli-g'arbiy, g'arbiy va shimoli-sharqiy.

Markazdagi ma'muriy ob'ektlar: tuman xokimiyati, soliq inspeksiyasi, banklar, ATS, avtostantsiya, dehqon bozori, madaniyat uyi, «Xotira» monumenti, bundan tashqari 1-2qavatli kvartirallardan iborat.

Ko'p qavatli turar joy binolari va ma'muriy binolar barcha muxandislik jixozlari bilan ta'minlangan.

Oltinko'l tumanida kommunal xizmat ko'rsatish ob'ektlari, madaniy muassasa, bog' park va sport inshootlari mavjud emas.

Markazda ma'muriy binolar oldida ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar xajmi 3,9 m² ni tashkil qiladi. Bu esa bir kishiga 4-7 m² tug'ri keladi.

Oltinko'l markazidan chiqib ketishda 4,6 ga maydonda yaxshi ko'kalamzorlashtirilgan hududda «Istirohat bog'i» oromgoxi mavjud.

Markazning shimoli-sharqiy tomonida suv ta'minoti inshooti mavjud, bu esa markazni suv bilan ta'minlab turadi.

Markazning Shimol qismida qoradaryo va Farg'ona kanali orasida musulmonlar qabristoni mavjud.

Markaz chegarasi hududidagi turar joy fondi asosan 1-2 qavatli hovlilik turar joy binolari 77 % ni umumiy maydondan, 2 qavatlik kottedj tipidagi turar joy binolari 0,5 % ni, 2 qavatli ko'p xonadonli turar joy binolari tashkil etadi.

Maydonda aksariyat 1 qavatli binolar ko'p, ular markaz maydonining 445 ga (93,3 % ni yashash maydonidan) tashkil qiladi va bu maydonda 31230 kishi istiqomat qiladi. 2 qavatli kottedj tipidagi turar joy binolari 0,8 ga ni tashkil etadi, 556 kishi istiqomat qiladi (maydonni 0,3 % ni tashkil etadi). 2 qavatli ko'p xonadonli tura joy binolari 1,7 ga ni tashkil etadi (maydonni 0,7 % ni egallagan). 256 kishi istiqomat etadi. Markazni umumiy turar joy fondini 170,0 ming m² tashkil qiladi.

Oltinko'l markazini hozirgi davrda ixcham yig'iq deb aytib bo'lmaydi. Respublika miqyosidagi P-122 «Andijon-Oltinko'l-Andijon» avtomobil yo'li ikkita rejali tumanni bo'lib o'tgan.

Oltinko'l 'markazining ma'muriy markazida Oltinko'l ko'chasida Tuman xokimiyati, arxiv binosi, solik inspeksiyasi va sud binosi, pochta bank markazi, maishiy xizmat ko'rsatish binolari mavjud. Markazning markaziy qismida amaliy jixatdan barcha ma'muriy – xo'jalik binolari, savdo sotiq muassasalarining joylashgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, Oltinko'l markazi tugatilgan arxitektura ansambliga ega emas. Qurilmalarga rekonstruktsiya talab etiladi, obodonlashtirish elementali qoniqarli darajada emas. Tumanda madaniy-xo'jalik xizmati zaif rivojlangan.

Mavjud bo'lgan kinoteatr ham o'z vazifasini bajarmayapti. Markazdagi hammom tamirtalab holatda. Kir yuvish va ximchistka mavjud emas.

Meditsina muassasalarini kengaytirish talablari kerak emas. Oltinko'l tumanida Shifoxona kompleksi va kattalar, bolalar poliklinikasi mavjud. 2 ta o'rta maktab to'ldirilganlik sigimi 131,2 % ni, 4 ta bog'cha esa sigimi 101,0 %% larni tashkil qiladi. Har qaysi axoli punktini rejalash strukturasi o'zagi uning ko'cha yo'l tizimidagi karkasi hisoblanadi.

Markazni tashqi yo'l bilan bog'lab turuvchi asosiy magistrali bular:

- Respublika miyosida P- Avtomobil tranzit yo'li bo'lgan Oltinko'l markaziy ko'chasi;


Tuman markazining iqlimini yaxshilash maqsadida ko'kalamzorlashtirish tashkiliy ishlarini olib borish zarur. Bog'lar, xiyobonlar yaratish lozim.

Suv va ko'kalamzorlashtirish sifatidagi tabiiy karkas arxitektura rejalash ishlarida muxim rol uynaydi va u shaharni estetik ko'rinishi va ekologik turgunligini yaratadi.

Bir qavatli turar joy binolarining ko'kalamzorlashtirilishida asosan bog'lardan, uzum shiyponlaridan va poliz ekinlaridan tashkil etilgan. Umumiy olganda ko'kalamzorlashtirish 5,2 ga ni yoki 3,9 m² ni tashkil etadi. Bu bir kishiga 4-7 m² tashkil etadi.

Men loyihalashtirayotgan turar joy mavzesi Oltinko'l tumani markazi bo'lib, asosan kam qavatli, eski, reja asosida qurilmagan turar joy fondidan tashkil topadi. Shu sababdan, ushbu hudud loyihasini bajarishda yechimlar yaxlit kompozitsiyaga asoslanib hal etiladi. Bunda hududga bo'sh yer sifatida qaraladi. Hozirgi kunda hudud maydoni 445 ga ni tashkil etadi va o'rtasidan magistral yo'l o'ygan.

Loyiha uchun tanlangan hudud



(10-rasm.) Oltinko'l tumani markazi xolat tarxi

1.4. Loyihani funksional zonashtirish

Funksional zonashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: turar joy, bolalar bog'chasi, o'rta maktab, ma'muriy va ko'kalamzorlashtirilgan hududlarga bo'linadi. Shuningdek mavze hududida joylashgan avtobus bekatlari mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi lozim. Mening loyihamda ham shu qoidalarga asosan funksional sxema tuzildi. Turar-joy binolari hamda jamoat binolari orasidagi masofani soya solayotgan imorat qavati bo'yicha hisobga olingan. Bunda har bir hudud o'z xizmat ko'rsatish radiusi doirasida joylashdi. Har 300 m oraliqda va ko'chlar kesishuvida avtobus bekatlari o'rnatildi. Maktablar shaharning markazida joylashgan bo'lib, xizmat ko'rsatish radusi barcha turar joy hududlariga to'g'ri taqsimlangan. Jamoat markazining me'moriy-makoniyl kompozitsiyasiga quyidagi omillar ta'siri hisobga olindi:

- tabiiy-iqlimiy;

- landshaft;
- shaharning bosh rejasidan kelib chiqadigan, loyihalanayotgan mavzening mahalliy (tarxiy) shart-sharoitlari;
- turar-joy muhitini qurish usullari;
- turar-joy va jamoal binolari turlari, hududni obodon- lashtirish.

Xizmat ko'rsatish binolari belgilangan masofalarga rioya qilingan holda takror yoki bir joyga to'plangan holda joylashtirildi.

Quyida funksional sxema asosida maydon o'lchamlari berilgan.

Funksional yechim maydon o'lchamlari:


Umimiy maydon – 56,6ga

Maktablar soni –2 ta, maydoni – 3,5 ga

Bog'cha soni– 2 ta, maydoni – 2ga

Turar joy fondi – 5 ga

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish – 24 ga



(11-rasm). Transport tarxi va bosh tarx

Loyihalanayotgan jamoat markazida 2 ta maktab binosi mavjud. Shuningdek, magistral yo'llarning o'rta qismiga yaqin joyida, turar joy majmualari oralig'ida nuqtali, ya'ni, 1 podyezdli turar uylar joylashtiriladi. Jamoat Ma'muriy boshqaruvi va savdo-maishiy obyektlar asosan shu turar joylarning 1-2 qavatlarida joylashadi. Yopiq garajlar esa ularning yerto'la qismida joylashadi.

1.5. Loyihaviy yechim

Birinchi navbatda aholiga qulaylik yaratish maqsadida respublika miqyosida bo'lgan P-122 avtomobil tranzit yo'liga shahar miqyosidagi yo'l sifatida qaralishini va tranzit avtomobillar kiritilmaslik taklifini berdim. Chunki, tranzit avtomobillar ayni paytda shahar markazida avtomobil trbandliklarini keltirib chiqarmoqda. Agarda bu yo'lni qoldiradigan bo'lsak aholiga katta noxushliklar keltirib chiqardi.

Men bu jamoat markazi loyihasida hududni 51.8 % ni qurilishga 49.2% ni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish hududlariga ajratdim.

Chunki hozirda har xil zararli gazlarning atmosferaga chiqarilishi, oddiygina, bizning kundalik yumishlarimizda anchagina qulaylik yaratyotgan mashinalarning qanchalar atmosferani zararlayotgani ko'rib turgan holda va shu sababdan tabiiy kislorod muammosi ko'tarilgan bir paytda bu loyiha ancha samarali foyda berishini ko'zda tutdim. Buni izohlaydigan bo'lsam, loyihada barcha turar uy hamda jamoat binolari hududida yashil hududlarini tashkil qildim. Turar joy binolarida 1 qavat ochiq bo'lib, u yerdan foydalanish imkoni yaratiladi va bu joy



(12-rasm). Turar binosi

hududni quyosh nurlarisiz o'sishi mumkin bo'lgan osimliklar bilan ta'minlash bo'ladi. Chorraxalarga yaqin tomonida ushbu binoning balandqavati joylashadi.

Binoning aynan shu qismining 1- qavati savdo va maishiy muassasalar uchun ajratilgan. Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad transport yechimlarini hal etish, istirohat maydonlarini kengaytirish, jamoat markazini ekologik jihatdan qayta loyihalash, eskirgan, yaroqsiz bino-inshootlarni qayta ta'mirlashdir.

Bog'chalarning turar joy majmuasining hovlisida joylashganligi aholini vaqtini tejaydi va havfsizligini ta'minlaydi. Bog'cha ham hamma sanitar gigiyenik talablarga javob beradi. Hovlisida bolalar o'yingohlari tashkilashtirilgan. Xattoki binoning ichida ham qish mavsumiga moslangan bolalar o'yin zallari mavjud. Bog'chaning xizmat ko'rsatish radiusi me'yorlarga mos keladi.

$R=300$ m. Bog'chaning sig'imi 360 ta bolaga mo'ljallangan. Shuning hisobiga bog'cha maydoni 1.3 ga ni tashkil etadi.

Mavzening markaz qismida joylashgan maktab binosi mavzeda yashovchi aholining ehtiyojlariga to'liq javob beradi. Har bir maktab sig'imi 1500 ta bolaga mo'ljallangan.

Maktab radiusi ham me'yor qoidalarga mos ravishda joylashtirilgan $R=500$ m. Mavzeda butun hudud kompakt va simmetrik kompozitsiyaga ega. Faqatgina janubi-g'arbiy qismdagi majmua bir oz kattaroq maydonni egallagan. Binolarning transport ta'minoti majmualarning tashqi tomonlaridan amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida aholi havfsizligini ta'minlaydi hamda majmua hovlisini shovqindan himoya qiladi.



(13-rasm).Bog'cha binosi

Bog'cha va maktablarga yong'in havfsizligini ta'minlovchi yo'llar ham berilgan. Majmua hovlisi dam olish va o'ynash maydonchalari bilan, shiyponchalar bilan, piyodalar yo'lakchalari va yashil maydon bilan ta'minlanga.

Mavzening barcha hududi ko'kalamzorlashtirilgan va to'rtta burchagida 4ta favvora odamlarning xordiq chiqarishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Mavzening o'ng va chap tomonlarida , maktab hududidan tashqari, aholi uchun sport maydonchalari yaratilgan bo'lib, u yerda barcha insonlar sport bilan shug'ullanishlari mumkin. Bundan tashqari, bu sport maydonchalari yonida shiypon qurilgan bo'lib, bu yerda yoshi kattalar o'z bolalarini shu yerdan nazorat qilishlari mumkin. Uning ichida qulaylik yaratish maqsadida kichik do'konham joylashgan.

Dunyo tomonlariga nisbatan turar joylarning asosiy qismi qulay joylaashtirilgan. Noqulay joylashgan qismlarida quyosh tig'iga duch keladigan qismlari balkon bilan jihozlangan.Bu xonalarning qizib ketishidan saqlaydi. Massiv hududi uning bir tomonidan ikkinchi tomoniga yelvizaksimon kesib o'tuvchi yo'llardan holi. Har bir turar joylarning oldida vaqtinchalik avto to'xtash joylari ajratildi. Piyodalar yo'lkalari ham mavjud bo'lib ularning kengligi 1 metrdan 2.5 m gacha.

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish

BO'LIMI

Konsul'tant: KAmillova Xolida Xabibullaevna _____
(F.I.SH., imzo)

Rahbar: Rasulov Nigmat Fayzullaevich _____
(F.I.SH., imzo)

Diplomant: Abdusalomov Farxodbek Ziyoyiddin o'g'li _____
(F.I.SH., imzo)

2.OBODONLASHTIRISH VA KO’KALAMZORLASHTIRISH BO’LIMI

2.1. Landshaft aritekturasini atamasi.

2.2. Qishloq aholi joylarining markazi rekonstruksiya.

2.3. Loyihaviy taklifda ko’kalamzor hudud.

2.1. Landshaft aritekturasining atamasi.

¹Landshaft Arxitekturasi atamasi birinchi marta AQSHda birinchi milliy bog'lrning tashkil etilishi munosabati bilan yuz yildan ortiq vaqt ilgari paydo bo'lgan Evropaga bu tushuncha ancha kechroq kelib kirdi. Ammo bu landshaft arxitekturasining tarixi qisqa ekanini anglatmaydi. Landshaft arxitekturasining rivojlanish yillarini tasavvur etishi uchun landshaft arxitektorlari nima bilan shug'ullanishini va ularning bu kasbi arxitekturaning keng dun'yosida qanday o'rinni egallashini tushunish zarur.

Xududlarni landshaftli tashkil etishning boshlanishi, o'simliklarni moishiy va davolash maqsadlarida foydalanish va sabzavotchilikning rivojlanishi bilan yaqin bog'liq bo'lib, u antik davrga kelib dekorativ manzoriali bog'dorchilikka o'sib o'tdi, o'rta asrlarda esa bog'-park san'ati darajasiga etdi. XIX va XX asr chegaralarida keng shahar va shahardan tashqaridagi maydonlarning obodonchilik va ko'klamzorlashtirish vositalari bilan arxitektura rejalash va estetik tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat landshaft arxitektura deb atala boshladi.

Tabiiy muhit bilantaqqoslaganda inson qo'li bilan yaratilgan muhit xisoblanadi. Biroq ta'kidlash joizki, arxitektorlar shakllantiradigan muhit sifat jixatidan har xil bo'lishi mumkin. Dastavval, bu sun'iy yaratilgan maydonlar muhiti bo'lib, ular atrof dunyodan ko'p yoki oz darajada ajralgandir. Bu muhit eng xilma xil binolar va inshootlardan, shu jumladan, er osti, ko'chma va h.k. inshootlardan iborat bo'lishi mumkin. Binolar va inshootlar ichidagi devorlar va to'siqlar bilan bekitilgan bu barcha fazolar arxitekturaga tegishlidir.

Arxitektura vositalari bilan shakllanadigan muxitning boshqa bir turi to'sib turuvchi konstruktsiyalar ichiga olinmagan ochiq maydonlar hisoblanadi. Bularga parklar, bog' va skverlar, ko'chalar, hiyobonlar (bul'varlar), umumfoydalanuvchi bog'lar, sohil bo'ylari, kvartal (go'zar) ichi fazolari, tarixiy landshaftlar va boshqalar kiradi.

¹Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi: 1 qism, darslik / O'zR oiliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, -Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 - 160 b.

Ochiq fazolar diapazoni juda o'lkandir, va ularning turlari ro'yxatini cheksiz davom ettirish mumkin. Ochiq fazolar muhitini shakllantirish bilan landshaft arxitektura shug'ullanadi, ya'ni landshaft arxitektura – bu ochiq fazolar arxitekturasidir.

Landshaft arxitekturasining va uning eng muhim shoxobchasi bog'-park san'atining yorqin, o'ziga xosligi maxsus, tabiiy qurilish materialarining: o'simliklar, suv, er, joy topografiyasini ham xisobga olgan xolda foydalatilganligi va hozir ham foydalanilishi xisoblanadi. Aynan ana shu materiallar ochiq fazolar muhitini shakllantirishda landshaft arxitekturasining asosiy ish qurollari hisoblanadi. Odatdagi qurilish materiallari ham axamiyatga ega bo'lsada, ular shakllantirilayotgan muhitga faqat qo'shimcha bo'ladi.

Xullas, landshaft arxitektorlari asosan tabiiy muhit bilan ishlaydi. Ayrim xollarda u tabiiy muhitga imkoni boricha kam aralashadi, boshqa hollarda, "sun'iy tabiatni" yaratadi, ya'ni arxitektura ijodi natijasi sifatida yuzga keluvchi ochiq fazolarning to'liq yangi muhitini shakllantiradi. Bu ikkala an'ana, ularning turlicha qo'shilishida, landshaft arxitektura rivojlanishning butun tarixi davomida namoyon bo'ladi.

Landshaft arxitekturasining umum qabul qilingan arxitekturaviy amaliyot bilan taqqoslagandagi o'ziga xos xususiyati estetik va ekologo-insonparvarlik asosining boshchilik qiluvchi ahamiyatidir. Bunda yaratilayotgan muhitning funktsional va texnik jixotlari ularning muhimligiga qaramay bo'ysinuvchi o'rinni egalaydi. Bu sifat landshaft arxitekturasining san'atning bir turi, aynan bog'-park san'ati sifatida tushunilishiga asos bo'ldi.

Qishloq manzilgohlarida ko'chat o'tkazishni loyihalashtirishda bog'-park san'atining milliy an'analariva tabiiy-iqlimiy sharoitlarni hisobga olish kerak. Aholi joylashuvining lokal (ichki xo'jalik) tizimlaridagi ko'kalamzorlashtirish loyihalariga shaharsozlik nuqtai nazaridan yondashuv tartiblari ularning samarali joylashuvi va rekreatsion xizmat ko'rsatish tizimidagi mangzilgoh ahamiyati va turiga bog'liq bo'lgan differensiatsiyasidan iboratdir.

Manzilgohturi	Umumiyfoydalanishga mo'ljallanganko'kalamzorlashtirishme'yorlari, m ² /odam, qishloq manzilgohlarida intiluvchan aholi bilan birgalikdagi aholi soni, odam				
	500 gacha	501-1000	1001-2000	2001-5000	5000 va h.k.
Xo'jalikningyordamchiposyolk asi	10-12	8-10	6-8	4-6	4-6
Xo'jalikning markaziy qo'rg'onchasi		12-15	8-10	6-8	6-8
Qishloq manzilgohlari -aholi joylashuvining guruhli tizimida rekreatsion xizmat ko'rsatish markazlari			10-12	8-10	

Parklarni rekreatsion xizmat ko'rsatadigan markazlar vazifasini bajaruvchi qishloq manzilgohlarida loyihalash lozim, u aholi joylashuvining lokal (mahalliy) tizimlarida (ichki xo'jalik, xo'jaliklararo va h.k.) bo'lishi lozim.

Parkning turli zonalar tarkibi va kattaligi loyihalashdagi vazifasi bilan belgilanadi.


Manzilgohlarni loyihalashtirishda ko'chatlar me'yorini elementlar bo'yicha qayta taqsimlab chiqish mumkin. Ko'chatlardan yanada unumliroq foydalanish maqsadida ularni markazni shakllantiruvchi jamoat binolari oldidagi hiyobonlar (bog'lar), turar-joy guruhlari va turar-joy uylarining o'rtasida joylashtirsa bo'ladi, shunga ko'ra park va bulvarlar hajmini kichraytirish maqsadga muvofiq.

Aholisi 2 ming kishigacha, bo'lgan q/x korxonalarining yordamchi posyolkalarida klub, ma'muriy bino, mahalla markazlarida hiyobon yoki bog' loyihalansa ma'qulish bo'laredi.

Bulvarlar tuzilishini transport yo'llari bo'lmagan joylarga, asosiy piyoda harakati yo'nalishlariga moslash lozim. Bir piyoda yo'lagili bulvarlar kengligi kamida 10 m bo'lishi kerak.

Kengligi 100 m va undan katta bo'lgan sanitar-himoya hududida kengligi kamida 50 m bo'lgan, 100 m gacha kenglikdagi hududda esa kamida 20 m bo'lgan daraxt-buta ko'chatzor barpo etish ko'z da tutilishi lozim.

Kuchli shamol, bo'ron, garmselva h.k. ga duch keluvchi cho'l va qo'riq joylarga loyihalashtiriluvchi qishloq manzilgohlari uchun shamol ko'proq esadigan tomondan eni 50 m bo'lgani hota barpo etish ko'zda tutiladi. Bunday ihota o'tkazish imkoni bo'lmaganda ob-havo injiqliklariga bardosh beruvchi binola rrejasi va namunalarining maxsus usullarini ishlab chiqish albatta lozim.



Qishloq aholi yashash joylarida parkning joylashishiga misol:

Qishloq aholi joylarining markazi rekonstruksiyasi

Qishloq aholi punktlari jamoat markazlarining tizimini tumanlarni rejalashtirish sxemalari va loyihalari hamda qishloq xo'jaligi korxonalari hududining me'moriy-rejaviy tashkiloti sxemalari bilan uyg'unlashtirgan holda, QMQ 2.07.04-98 "Qishloq xo'jaligi korxonalari hududlarini me'moriy rejalashtirish tashkil qilish" ga muvofiq, quyidagi tarkibda ishlab chiqish lozim:

- qishloq aholi punktining jamoat markazi;
- mahalla markazlari.

Qishloq joylashtirish tizimi markazlari rolini bajaradigan qishloq aholi punktlaridagi jamoat markazi aholi punktlararo xizmat ko'rsatish markazi vazifasini ham bajaradi.

Jamoat markazlarining tuzilishi va tarkibi qishloq aholi punktining kattaligi, uning xizmat ko'rsatish tizimidagi roli, shuningdek, qishloq aholi punktining rejaviy tuzilmasi xususiyatlariga muvofiq aniqlanishi lozim.

Uzun choq yoki bo'lingan shaklda bo'lgan qishloq aholi punktlarida, hisob-kitoblarga muvofiq, qo'shimcha ravishda xizmat ko'rsatish kichik markazlarini ko'zda tutish mumkin.

Yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar uchun jamoat markazining hududiy kattaligi (park va tekis sirdagi sport inshootlarisiz) kishi boshiga 8-12 m² hisobidan aniqlanishi kerak (kattaroq ko'rsatkichlari - kichik aholi punktlari uchun).

Jamoat markazining rejaviy hal etilishi tejamkorligini oshirish uchun markazning qurilmalarida binolarning yiriklashtirilgan guruhlangan turlaridan foydalanish lozim.

Nogironlar va aholining kamharakatlanuvchi guruhlarining qurilmalar hududida bo'lishi uchun qulay sharoitlarni yaratishda SHNQ 2.07.02-07 "Insonlarning hayoti va faoliyati muhitini nogironlar ehtiyojlari va aholining kam harakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan holda loyihalash" talablarini amal qilish lozim.

Jamoat markazlari tuzilmasi va tarkibini manzilgoh katta-kichikligi, xo‘jalik va tumanga xizmat ko‘rsatish tizimidagi uning vazifasi hamda manzilgohni rejalashtirish tuzilmasi xususiyatlariga muvofiq ravishda aniqlash lozim.

Rejada chizilgan qismlarga bo‘lib yuborilgan shaklga ega manzilgohlarda xizmat ko‘rsatishning qo‘shimcha markazlarini oldindan mo‘ljallab qo‘yishga to‘g‘ri keladi.

Yiriklashgan ko‘rsatkichlar uchun jamoatmarkazlarini (parklarva tekis erdagi sportinshootlarini hisobga olmaganda) $8-12 \text{ m}^2/\text{odam}$ hisobidan kelib chiqib belgilash joiz bo‘ladi (katta ko‘rsatkichlar manzilgohlar uchun).

Qishloq hududi har qanday holatda ham shahar hududidan kichik bo‘ladi va bu hol uning markazigacha piyodalarning bemalol qatnovini ta‘minlaydi. SHuning uchun ham qishloqlarda monotsentrik, ya‘ni bir markazli tizim qo‘llaniladi. Madaniy maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari yagona jamoat markazida joylashadi. Ayrim hollarda maktab binosi ham jamoat markazi tarkibiga kirishi mumkin. Bu katta yoshdagi aholining kechki vaqt maktabning jamoat xonalari, sport zali va sport maydonchalaridan foydalanishiga imkon beradi. Bolalar muassasalari va kasalxonalar markazdan tashqarida joylashtiriladi.

Qishloq aholisiga bir tekis xizmat ko‘rsatishni tashkil etish uchun jamoat markazini aholi yashash hududining geometrik markaziga joylashtirish maqsadga



muvofiqdir. Agar qishloq bir necha xo‘jaliklarning umumiy markazi hisoblansa, markaz katta yo‘lga, tashqi transport bekatlari yaqiniga joylashtirilishi mumkin.

17-rasm. Jamoatmarkazlarining arxitekturaviy-rejaviytashkiletilishiga misollar:

2.3. Loyihaviy taklifda ko'kalamzor hudud.

Men bu mavzuda Oltinko'l tumani markazini qayta loyihalash maqsadida o'zimning taklifiy loyihamni berdim. Loyihamda ko'ngil ochar istirohat bog'ini yer mayodonini kattalashtirib, istirohat bog'ining ko'kalamzor hududi kengayishi uchun unga manzarali daraxt va gullar o'qazdim. Bu yerda yoz kunlari odamlar hordiq chiqarib, oilaviy dam olishni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bog'ning markaziy ansambilini favvora yordamida tashkil etim, hamda uning qarshida amfiteatr binosini joylashtirdim.



(14-rasm.) Favvora



(14-rasm.) Istirohat bog'i tinch hududi

Bu bog'ning eski o'rnida "Oltinsohil" istirohat bog'i bo'lgan lekin mavjud bog'ning maydoni axoli somiga nisbatan kam bo'lganligini inobatga olib stadion yonidagi qarovsiz yerni bog' hududiga qoshib berdim.

Istirohat bog'ining yoniga sport kompleksini joylashtirdim. Sport komplekslarini loyihamga kiritishdan asosiy sabab hozirgi kunda markazda sport inshootlarining yetarli emasligi, hamda bolalarni sport bilan shug'illanish uchun shart-sharoitlarini yo'qligi tufayli, yangi sport hududlarni loyihalash asosiy maqsadim bo'ldi. Futbol maydonlarini zamonaviy jihatda qayta loyihalash va hozirgi zamon talablariga javob beradigan tarzda qurish, suzish havzalari, hamda yopiq sport zallarini tashkil etish bilan mavjud sport muammolarini butkul hal qilishga erishaman.

Markazda kutubxonaning yo'qligi, hozirda o'quvchilarni savodxoblighi oshirish uchun, uzoq masofalarga kitob sotib olish, yoki o'qish bilan bog'liq muammolarni hal etadi. Kutubxonani ko'chaning ansambilidagi ro'li, arxitekturaviy yechimi zamonaviy tarzda hal etilgan .

Savdo-sotig' majmuasini tashkil etish jamoat markazi hududida hozirgi vaqtda yoyilib yotgan savdo do'konlari , tartibsizliklarni oldidni oladi va ularni bir joyga jamlaydi. Insonlarni ehtyojini qondirish maqsadida markaziy hududga 3 qavatli gipppermarket binosini joylashtirdim. U yerda odamlar madaniy hordiq chiqarib, dam olishlar mumkin.

Oltinko'l tumani eski holatida jamoat binolarini betartib joylashganini, hamda avtomabillar turargoxlarni loyihalabdim. Oltinko'l tumanini kesib o'tuvchi yo'lda bozor mavjud bo'lganligi sababli yo'lda tirbandlik hosil bo'lmasligi uchun bozorni tuman chetiga loyihalashtirilyotgan bozor hududiga qoshib o'rniga tuman markazi ko'rkiga ko'rk qoshuvchi zamonaviy gipermarket binosini loyihaladim gipermarketni istirohat bog'i bilan uyg'unlashuvini taminlab berdim.

Hududni muxandislik tashkil etish va transport

BO'LIMI

Konsul'tant: Usmonov Quvvat Turdiyevich _____

(F.I.SH., imzo)

Rahbar: Rasulov Nigmat Fayzullaevich _____

(F.I.SH., imzo)

Diplomant: Abdusalomov Farxodbek Ziyoyiddin o'g'li _____

(F.I.SH., imzo)

3. HUDUDNI MUXANDISLIK TASHKIL ETISH VA TRANSPORT

3.1. Shaharsozlikda transport va muhandislik tarmoqlarini tutgan o'ni.

3.2. Avtomobillar va boshqa transport vositalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha inshootlar va korxonalar

3.3. Muxandislik tarmoqlarining joylashuvi

3.4. Poytug' shahrining mavjud ko'cha yo'l tarmog'i va unda loyihalangan transport va muhandislik tarmoqlari.

3.1. Shaharsozlikda transport va muhandislik tarmoqlarini tutgan o'ni.

Shaharsozlikda transport tizimi aloxida o'rin tutadi. Transport tizimi shahar axolisining aktiv hayotini ta'minlaydi va uning samardorligin oshiradi. Aks holda transport tizimisiz ayniksa xozirgi kunda shahar hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Transport va piyodalar harakatini Loyihalash va uni tashkil etish - shaharning me'moriy loyihaviy yechimida asosiy muammolardan biridir. SHaharning Loyihaviy tarkibida ko'cha-yo'l tarmog'ini oqilona yechimini topish birlamchi masaladir. Ko'cha tarmog'ining eski shakllari zamonaviy shahalarning ko'pligi, transport oqimini o'tkazishni kamaytiradi, qiyinlashtiradi. Markaziy tumanlarda ma'muriy-jamoat va savdo binolarining xaddan tashqari ko'pligi katta miktordagi axoli va trasportni u yerga kelishi sabab bo'lib, ularning harakatini tashkil etishni qiyinlashtiradi. ²

Ko'chalar shaharlarning dastlabki shakllana boshlagan paytlardan boshlab shakllanadi. SHaharda transport tizimini tashkillashtirish shahardagi axoli zichligiga, har 1000 kishiga to'g'ri keladigan avtomobillar soniga, tarixan shaharning shakllanishida ko'cha-yo'l tarmog'ining qaysi sxema asosida shakllanganligiga bog'liqdir. Zamonaviy shaharsozlikda transport tizimini makbo'l yechimini yaratish shaharni shakllantirishda asosiy ro'l uynaydi.

Transport tizimi quyidagilardan iboratdir:


- ko'cha-yo'l tarmog'i;
- jamoat passajir transporti tarmog'i;
- tashki va shahar oldi transporti;
- transport infrastrukturasini.

Harakati boshqariladigan umumshahar miqyosidagi magistral ko'chalarda chorraxalar orasidagi masofa kamida 500 m bo'lishi lozim. Umumshahar ahamiyatidagi magistral ko'chalarga tuman miqyosidagi yoki mahalliy

²SHNK 2.05.02- 07 «Avtomobil' yo'llari» Toshkent- 2007

ko'chalarning qo'shilgan joylari orasidagi masofalar ham kamida 300-500 m ni tashkil etadi.

SHaharning ikkita yoki undan ortik turar joy tumanlarini, sanoat zonalarini guruhlarini yoki aloxidagi qorxonani bir nechta turar joy tumanlari bilan yoki mahalliy dam olish zonalarini bilan bog'laydi. Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalar soatiga 300 dan 1500 gacha avtomobillarni o'tkazish kobiliyati bilan harakterlanadi. Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalar yana turar joy tumanlarini shahar ahamiyatidagi magistrallar bilan yoki bevosita sanoat tumanlari bilan bog'lash uchun Loyihalanadi. Avtostoyankalarga tuxtalib o'tsak har bir madaniy maishiy joylarda o'zining avtostoyankalar Loyihalandi kichik tuman Loyihasida bulardan tashqari yer usti ko'p qavatlik mashina saqlash va to'xtab turish joylari ham loyihalandi.



23-rasm. Ko'chalar ko'ndalang qirqimi

Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalarning kengligi turar joylarning joylashishiga qarab, qlizil chizik va trotuar oraligida yashil polosaning bor yoki yo'qligidan kelib chiqqan holda 29-41 m ni tashkil qiladi. Bu o'lcham yashil polosalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

Tuman ahamiyatidagi magistral ko'chalarining ko'ndalang kesimi (binolar oldida daraxtlar bilan).

Transport va ko'cha-yo'l tarmoqlari. Axoli punktlari ko'chalari, ommaviy yo'lovchi transporti, tashki transport inshootlari, transport vositalariga xizmat ko'rsatish inshootlari tarmoqlarini joylashtirish tizimida eng kam vaqt va iqtisodiy sarflar bilan yo'q va yo'lovchilarni tashish imkonini ta'minlaydigan yagona tizim shaklida ko'zda to'tish lozim. Axoli punktining transport tizimini Loyihalashda uning bosqichma- bosqich, transport tizimining yaxlitligini va axoli punkti rivojlanishining har bir boskichida kutiladigan transport va yo'lovchilar oqimlarini o'tkazishni ta'minlaydigan rivojlanishini ko'zda to'tish mumkin. Qabul qilingan transport tizimi tubdan qayta qurilmaganda ham axoli punktining hisob muddatidan keyingi usishi imkonini ta'minlashi kerak.

Transport tizimi kelajakda ko'cha harakati oqimlari va yo'lovchilar oqimlari xakidagi hisob ma'lumotlari asosida Loyihalanishi kerak. Ko'cha harakati oqimlari, avtomobil saqlash joylari soni, shuningdek, shaharga boshqa axoli punktlaridan kelayotgan avtomobillar sonini mahalliy davlat idoralari ma'lumotiga ko'ra hisoblanishi lozim.

Turar joy qurilishi temir yo'ldan chetki temiryo'l o'qidan boshlab 100 m kenglikdagi sanitar-ximoya zonasi bilan ajratilishi. KMK 2.01.08-96 "SHovkindan ximoyalanish" talablariga muvofiq maxsus shovqndan ximoya tadbirlari ta'minlangada sanitar-ximoya zonasining eni ko'pi bilan 50 m ga kamaytirilishi mumkin. Sanitar – ximoya zonasida, temir yo'l tarmoqlanishidan tashqarida avtomobil yo'llari, garajlar, tuxtash joylari, avtomobillarga xizmat ko'rsatish qorxonalari, omborlar va kommunal – maishiy muassasalarni joylashtirish mumkin. Sanitar ximoya zonasi maydonining kamida 50 % ko'kalamzorlashtirilishi kerak.

Ko'cha- yo'l tarmog'i. Axoli punktlari ko'chalari tizimining rejaviy yyechimlari axoli punktlarining barcha funktsional zonalari orasida qulay aloqalar, markaziy va tarixiy zonalaridan avtomobillar tranzit oqimlarini chetlatish, yo'q va engil avtomobillar oqimlari ajratilishini ta'minlashi lozim. Ko'cha tarmog'i shaharga tashki avtomobil yo'llaridan qulay kirishni ta'minlashi kerak.

Magistral ko'cha tarmog'ining o'rtacha zichligi axoli punkti qurilishi hududida qurilayotgan hududning chegarasidan utuvchi ko'chalar o'zunligini hisobga olib 2,2-2,4 km/km² doirasida bo'lishi kerak.

Qayta qurilayotgan axoli punktlari markaziy qismlarida kapital binolar qurilgan ko'chalarning qatnov qismi tor bo'lganda parallel ko'chalar orasida masofa 350 m dan oshmaganda bir tomonlama harakat ko'zda tutiladi. Qayta qurish sharoitida faqat ommaviy yo'lovchi transporti va piyodalarni o'tkazish muljallangan ko'chalarni ham barpo etish mumkin.

Ko'chalar va yo'llar toifalari harakati kuchliligi, transport oqimining tezligi va tarkibi, shuningdek maqsad vazifasiga muvofiq qabul qilinadi.³

Umumshahar ahamiyatidagi harakati tartibga solinadigan magistral ko'chalarning boshqa transport yo'llari bilan kesishuvi odatda bir satxda ko'zda tutiladi. Tegishli texnik-iqtisodiy asoslash bo'lganda bu kesishuvlarda turli satxlardagi chorraxalar ham qurilishi mumkin. Umumshaharlar ahamiyatidagi magistral ko'chalarning boshqa ko'chalar bilan kesishuvi bir-biridan kamida 500 m masofada bo'lishi mumkin. Tor ko'chalar umumshahar ahamiyatidagi magistral ko'chalarga chorraxadan kamida 100 m masofada tutashuvi mumkin.

Piyoda yer osti yo'lkalarning eng kam eni 3 m, bir tomonlama zinalar eni – 2,25 m (yer osti yo'lkasining ikkala oxirida har biri 2,25 m enli ikkita zina qurilishi sharti bilan) qabul qilinadi. Barcha piyoda yo'lkalarda bolalar va nogironlar uchun eni kamida 1 m bo'lgan tushish joylari ko'zda tutilishi lozim.

3.2. Avtomobillar va boshqa transport vositalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha inshootlar va korxonalar

Garajlarga kirish va ulardan chikishgacha eng kam masofalar: magistral ko'chalar chorraxalaridan 50 m, mahalliy ahamiyatidagi ko'chalardan 20 m, ommaviy yo'lovchi transporti bekatlaridan 30 m bo'lishi kerak. Yer osti garajlariga kirish va ulardan chikishlar turar joy, jamoat binolari dyerazalaridan hamda bolalar va davolash muassasalari uchastkalaridan kamida 15 m uzoqlikdabo'lishi kerak.

³SHNK 2.05.02- 07 «Avtomobil' yo'llari» Toshkent- 2007

Turar joy uylari yonida engil avtomobillarning vaqtincha saqlash ochik tuxtash joylari fuqarolarga tegishli avtomobillar sonining 15 % hisobidan ko'zda tutilishi kerak.

3.3. Muxandislik tarmoqlarining joylashuvi

Shahar va qishlok axoli punktlarida axolisi soni, iqlimiy, jugrofiy va boshqa sharoitlaridan qat'iy nazar zarur sanitar-gigienik sharoitlarni va axolining mexnati, maishiy turmushi va dam olishi uchun qulayliklarning yo'qsak darajasini ta'minlovchi muxandislik jixozlanish va obodonlashtirishni ko'zda to'tish lozim.

Muxandislik jixozlanishi majmuiy tarzda, odatda, turar joy, sanoat va boshqa tumanlarga xizmat ko'rsatish uchun suv ta'minoti, oqava tarmog'i, elektr, issiqlik va gaz ta'minoti, aloqa va boshqa muxandislik tizimlarini mujassamlashtirib Loyihalanishi lozim. Tegishli texnik-iqtisodiy asoslanishda yakindagi shahar va qishlok axoli punktlari extiyojlarini ta'minlash uchun tuman suv, issiqlik ta'minoti, oqava tarmog'i tizimlari va boshqalar to'zilishini ko'zda to'tish zarur.

Suv ta'minoti va oqava tarmog'i

Suvni tozalash stantsiyalari uchun yer uchastkalari maydoni ularning unumiga qarab, ming m³/sut, Loyihaga ko'ra, lekin ko'pi bilan

0,8 ga	1
0,8 dan 12 gacha	2
12 dan 32 gacha	3
32 dan 80 gacha	4
80 dan 125 gacha	5
125 dan 250 gacha	12
250 dan 400 gacha	18
400 dan 800 gacha	24

Markazlashtrilgan oqava tizimi bo'lmaganda barcha vaqtincha yechimlar markazlashgan oqavaning umumiy sxemasi qismlari bo'lishi kerak. Kurgoncha qurilishda zamin sharoitlarini xisobga olib septiklar qurilishi tavsiya etiladi yoki sanitar-epidemiologik xizmatning mahalliy idoralari bilan kelishib oqava stantsiyalari ko'zda tutilishi kerak.

Elektr, issiqlik, sovuqlik va gaz ta'minoti, aloqa, Radio eshittirish va telekursatuv:

Elektroenergiyasi sarfi, issiqlik, gaz va elektr ta'minoti manbai quvvatiga bo'lgan talab quyidagicha aniqlanadi: sanoat va qishlok xo'jalik qorxonalari uchun – ishlayotgan korxonalar buyurtmalari, yangi, qayta qurilayotgan yoki o'xshash qorxonalar Loyihalari, shuningdek mahalliy sharoitlarni hisobga olib yiriklashtirilgan ko'rsatgichlar bo'yicha; xo'jalik-maishiy va kommunal ehtiyojlar uchun QMQ 2.04.07-99 "Issiqlik tarmoqlari" va QMQ 2.04.08-96 "Gaz ta'minoti".⁴Loyihalash normalariga muvofiq. Shaharlarni qayta qurishda kuchlanishi 35-110 kV va yuqoriroq bo'lgan elektr o'zatish liniyalarini obod hududlardan tashqariga chiqarish yoki havo liniyalarini kabel liniyalariga almashtirish, bo'shagan hududlarda turar joy va jamoatchilik binolarini qurish maqsadga muvofiq bo'lganda esa, mavjud chuqur kirishli pasaytiruvchi ochik kichik stantsiyalarni yopiklari bilan almashtirishni ko'zda to'tish lozim.

Shahar axoli punktlari obod xuxudida 4 qavatli va yuqoriroq binolar qurilishi joylarida 20 kV gacha kuchlanishli elektr tarmoqlar, shuningdek, kurort majmualari hududida barcha kuchlanishlar tarmoqlari odatda kabel liniyalari bilan ko'zda tutilishi kerak. Tashki yoritish tarmog'ining havo liniyalariga yo'l quyiladi.

Taqsimlash punktlarini va 10 kV kuchlanishgacha metall transformator kichik stantsiyalari atrofini to'siq bilan urash lozim. Maktablar va bolalar muassasalari xududlarida taqsimlash punktlari va transformator kichik stantsiyalarini joylashtirish mumkin emas. Axoli punktlarining isiklik ta'minotini tasdiklangan issiqlik ta'minoti sxemalariga muvofiq ko'zda to'tish zarur. Issiqlik va sovuq ta'minoti tizimlarini tanlashda asosiy ta'sir etuvchi omillarning barchasi, jumladan texnik-iqtisodiy, enyergetik, shaharsozlik, ijtimoiy va ekologik omillar hisobga olinishi zarur.

Gaz to'ldiruvchi stantsiyalar (GTS) yer uchastkalari maydoni ularning unumiga bog'liq, Loyihaga ko'ra, lekin ko'pi bilan unumli stantsiyalarga gektar hisobidan qabul qilinadi:

⁴KMK 2.01.01-94 «Klimaticheskie i fiziko-geologicheskie dannye dlya proektirovaniya» Tashkent 1994g.

100 ming t/yil	6
20 ming t/yil	7
30 ming t/yil	8

GTS dan turli maqsadli bino va inshootlargacha bo'lgan masofani KMK 2.04.08-96 "Gaz ta'minoti. Loyihalash normalari"ga muvofiq qabul qilish lozim.

Muxandislik tarmoqlarining joylashuvi

Muxandislik tarmoqlari oylashuvi quyidagilarni ta'minlashi kerak: ham yer usti, ham yer osti makonidan oqilona foydalanish; qurilishning eng kam qiymati, muxandislik tarmoqlarining saklanishi va ishonchli ishlashi, ulardan foydalanishning qulay va xavfsizligi; transport harakati uchun eng kam tusqinlik, yo'l qoplamalari va ko'chatzorlarning saqlanishi, axolining normal turmush sharoiti; issiqlik tarmog'i va suv quvurlarining kirishi, shuningdek, oqavaning chikishi asosan binolarning yon chet qismidan o'tkazilishi; gaz quvurlarining kirishi binolarning hovli tomonidan o'tkazilishi; aloqa kabel' tarmoqlari (quvurlarda) binolarning yon qoplamasi tagida, elektr kabellar – bevosita yon qoplamalar bo'ylab joylashtirilishi; muxandislik tarmoqlarining umumiy xandakda va zich qurilish rayonlarida, iqtisodiy asoslanganda esa – umumiy kollektorlarda yotkizilishini ko'zda to'tish lozim.

Ko'chaning ko'ndalang kesimida yer osti muxandislik tarmoqlarini kizil chizikdan taxminan quyidagi tartibda jolashtirish tavsiya etiladi: telefon kanal tarmog'i, elektrokabellar, issiqlik tarmog'i, oqava tarmog'i, tarnov; bunda tarmoqlarning tik xolati ularga erkin ulanishni ta'minlashi kerak. Oqava tarmog'i va suv quvuri otda ko'chatzor zanosida joylashadi. Issiqlik quvuri, suv quvuri va ko'p sonli kabellarni bir vaqtda yotqizishda, rivojlangan yer osti xujligi bo'lgan shahar magistrallarini qayta qurishda, ko'chaning ko'ndalang kesimida tarmoqlarni aloxida yotqizish uchun joy bo'lmaganda, magistral ko'chalar va temir yo'llar bilan kesishganda muxandislik tarmoqlarini umumiy xandaklarda yotqizish ko'zda tutilishi kerak. Gaz quvurlarini tonnellar tagida o'tkazish mumkin emas.

3.4. Oltinko'l tumanining mavjud ko'cha yo'l tarmog'i va unda loyivalangan transport va muhandislik tarmoqlari.

Tuman markazi Andijon viloyatidan 15 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, sharq tomondan egri o'zanga ega bo'lgan Katta Farg'ona kanali, shimol tomondan Qoradaryo oraligida joylashgan.

Hozirgi vaqtda markaz maydoni aniq planlashtirish tashkiliy tuzimiga ega emas. Yaxlit arxitektura planlashtirish uchun Andijon-Oltinko'l-Andijon tranzit yo'li markazni ikkiga bo'lib turuvchi muhim to'siq bo'lib hisoblanadi. Shimol tomondan asosan rejali bir qavatli hovli joylar bilan qurilgan. Ikkita sektsiya turdagi uch qavatli turar joy binolari markazning G'arb va sharqiy chegara tomonlarida mavjud. Avtorassa chetlarida ma'muriy – xo'jalik ob'ektlari, bir qavatli turar joy binolari joylashgan. Bu esa o'z o'rnida markaziy ko'cha arxitektura ko'rinishini muayyan shaklga keltirmaydi. Binolarning bir qismi Oltinko'l ko'chasida qizil chizik ichida kolgan. Oltinko'l ko'chasini respublika miqyosidagi yo'l P-122 darajasida qarasak, uning yo'kasi bo'ylab qurilgan turar joylar normativ talablarga nisbatan to'g'ri keladi.

Markazning kolgan ko'chalari mahalliy ahamiyatidagi ko'chalar bo'lib, yaxshi obodonlashtirilmagan, ulardan ba'zi birlari tuproqva shag'al qoplamalariga ega.

Ko'chani transport harakati shiddatini tabiiy sharoitda urganilganda eng yo'qlangan ko'cha Oltinko'l ko'chasi ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari bu ko'cha markazni ikki tarafga ajratadi.

Zamonaviy ko'cha yo'l tizimining tavsifi:

1. Asosiy magistral ko'chaninguzunligi 9,9 km. Magistral ko'cha tizimining zichligi 2,46 km/km².

Ko'cha yo'l tizimining to'g'ri chizik bo'ylab ketmaganlik koeffitsienti 1,36, bu normadan yuqori.

2. Massiv shaxsiy qurilish joylarida obodonlashtirish choralari konikarli emas. Ko'pgina ko'chalarda piyoda yo'laklari mavjud emas, bundan tashqari ko'kalamzorlashtirish va ko'cha yoritilmagan.

3. Muavjud ko'cha yo'l tizimi gabaritlari normativ va klassifikatsiyaga tugri kelmaydi (ko'cha gabariti uning butun o'zunligi bo'yicha bir xilda emas).


Avtostoyankalar yo'qligi esa katta ob'ektlar yonida xavf tugdiradi. Namuna ko'chasida shaharning shimoli-G'arbiy tomonida avtovokzal mavjud. Xozirda ishlab turibdi.

Men loyihalagan Oltinko'l tumani jamoat markaziy qismida joylashgan bo'lib, birinchi navbatda aholiga qulaylik yaratish maqsadida respublika miqyosida bo'lgan P-122 avtomobil tranzit yo'lga shahar miqyosidagi yo'l sifatida qaralishini va tranzit avtomobillar kiritilmaslik taklifini berdim. Agarda bu yo'lni qoldiradigan bo'lsak aholiga katta noxushliklar keltirib chiqardi.


Mavze hududidagi transport tarmoqlari esa 2 tomonlama yo'llardan tashkil topgan bo'lib, 8 qirrali majmuaning tashqi tomonidan otadi. Bog'cha maktablarga yo'llar to'gri kirgazilgan.

Mavzening muhandislik tarmoqlari markazlashgan bo'lib, shahrning mavjud tarmoqlarida ulangan.

Mavzeda transport tarmoqlari juda sodda va qulay joylashdi. Turarjoy ahamiyatidagi yo'llarni majmuaning tashqi tomonidan olib o'ttim. Bu esa oznavbatida axolini havfdan asraydi va turli xil shovqinlardan holi bo'ladi.



Transport sxemasi (24-rasm.)



(25-rasm.) Yo'llarning ko'ndalang qirqimlari

Turarjoy ahamiyatidagi yo'llar eni 17m ni tashkil qiladi. Shahar ahamiyatidagi yo'llarni eni esa 28 m tashkil qiladi.

Mavzening muhandislik tarmoqlari ham talablarga mos ravishda amalga oshirildi. Unga elektr tarmoqlari kabellar bevosita yon qoplamalar bo'ylab joylashtirilishi. Gaz taminoti gaz quvurlarining kirishi binolarning hovli tomonidan o'tkazildi. Suv va kanalizatsiya tarmoqlari esa normalarga muvofiq issiqlik tarmog'i va suv quvurlarining kirishi, shuningdek, oqavaning chikishi asosan binolarning yon chet qismidan o'tkazildi.

Hayot faoliyati va mexnat xavfsizligi

BO'LIMI

Konsul'tant: Muhammadiyev Baxtiyor Abdukodirovich_____

(F.I.SH., imzo)

Rahbar: Rasulov Nigmat Fayzullaevich _____

(F.I.SH., imzo)

Diplomant: Abdusalomov Farxodbek Ziyoiddin o'g'li _____

(F.I.SH., imzo)

4.HAYOT FAOLIYATI VA MEHNAT HAVFSIZLIGI

4.1. Hayot faoliyati havfsizligining bugungi kundagi qurilish sohasidagi ahamiyati, maqsadi va vazifalari

4.2. Qurilishda mexnat sanitariyasi va gigienasi.1

4.3. Qurilish jarayonlarida mexnat xavfsizligi

4.4. Yong'in xavfsizligi

4.1. Hayot faoliyati xavfsizligining bugungi kundagi qurilish sohasidagi ahamiyati, maqsadi va vazifalari

Hayot faoliyati xavfsizligi va qurilishda mexnat muxofazasi bo'limining maqsad va vazifasi bino qurilish davridan boshlab to uning ekpluatatsiya davrigacha bo'lgan davrda baxtsiz hodisalarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni to'g'ri qabul qilishdir⁵.

Bo'limining zamonaviy qurilishdagi maqsadi ishchi va xizmatchilarning yashashi va u yoki bu mexnat jarayonida sog'liqni saqlash, ya'ni kasbiy kasalliklar, tasodifiy jaroxatlanish kabi baxtsiz hodisalarni oldini olishdan, hamda, tabiiy, texnogen texnika va harakat xavfsizligi sabablariga ko'ra ishchilarning sogligini, ularning mexnat kobiliyatlarini saqlash, shikastalanish, nurlanish, avariya, yong'in va boshqa kasalliklarni oldini olish va bu soxadagi konunchilik hamda hayot faoliyati xavfsizligi va qurilishda mexnat muxofazasiga bagishlangan boshqa me'yoriy xujjatlarni urganishdan iboratdir. Bunda me'yoriy xujjatlar, ya'ni KMK, GOST kabilarni qurilishda to'g'ri tadbik etish ham tushuniladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi va qurilishda mexnat muxofazasi bo'limining vazifalari qurilish maydonlarida va uning bilan bog'liq bo'lgan ish jarayonlarida sodir bo'ladigan jaroxatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va tashkilot ma'muriyatini ishchi va xizmatchilariga ish sharoitini yaxshilab berish, ustidan nazorat kilib turish, fan va texnika yutuklarini joriy qilish asosida hayot faoliyati xavfsizligi va qurilishda mexnat xavfsizligi va ximoya vositalarini mutassil takomillashtirish, qurilishda mexnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga karataligan tashkiliy va texnik hamda, sanitariya tadbirlarini ishlab chikish, ularni joriy qilish va xokazolardan iboratdir.

⁵“Qurilishda mexnat xavfsizligi” X. Azimov I qism. 1997 y

4.2. Qurilishda mexnat sanitariyasi va gigienasi.

Jamoat markazi qurilishining asosiy vazifalaridan biri axoli yashashi uchun qulay sanitariyagigienik sharoitlarni ta'minlashdir. Bu vazifa juda ko'p yo'llar bilan, jumladan, shaharlarning sanitariya obodonchiligi va tuprok, suv, havoning tozaligi, shuningdek shahar hududining tozaligini saqlash yo'llari bilan xal qilinadi. Shaharlarni sanitariya obodonchiligida shahar hududlarini sanitariya tozalash va shamol yo'nalishi va tezligi jiddiy ahamiyatga ega. QMQ 2.01.01.- 94 me'yoriy xujjat asosida shamol guli aniqlandi. Sovuq mavsumda (yanvar) shamol 1.4-2.1 m/s tezlik bilan shimoliy – sharqiy va sharqiy tomonlardan esadi. Issiq mavsumda (iyo'l) esa shamol 1.2-2.1 m/s tezligi bilan shimoliy, shimoliy – sharqiy va shimoliy – G'arbiy tomonlardan esadi. CHang va to'zonli kunlar soni – 5. Iklimi keskin kontitental', yoz oylari issiq va kuruk, eng issiq oy iyul oyi bo'lib, havo harorati – 44,5°. Qish oylari sovuq, yanvar oyida eng sovuq harorat ko'zatiladi, havo harorati – 29,5° bo'lishi mumkin. Havoning o'rtacha harorati +13,6° tashkil qiladi. Qor qalinligi uncha ko'p bo'lmagan holda 12 sm ni tashkil qiladi. Qor qoplamasi o'rtacha 43 kunni tashkil qiladi.

Andijon viloyati Oltinko'l tumanida joylashgan mavze bosh rejasi Loyihasida qurilishda mexnat xavfsizligi sanitariyasi va gigienasi ta'minlanishi uchun quyidagi chora tadbirlarni bajarish asosida ishlar olib borildi.⁶

Bosh tarx bo'yicha Loyihalanayotgan markazda o'rta qavatli va baland qavatli turar joy binolari shamol guli va quyosh nuri yo'nalishiga qarab Loyihalandi. Bunda turar joy binosining shamolatish va quyosh no'rining 1 sutkada kamida 3 soat davomida tushib turishi ta'minlandi.

Oltinko'l tumanida bitta yirik sanoat hududi joylashgan bo'lib, ular shamol esishini to'g'ri hisobga olgan holda, shaharga zararli tutun, kimyoviy zaharli tutun kirmasligini oldini oladi. Bu sanoat hududi devor to'siq bilan uralgan. Yashil hududi ham bor. Ishchilarning qulayligi uchun yuvinish xonalari, talabga javob beradigan ovqatlanish hamda sog'lomlashtirish markazi bilan ta'minlangan.

⁶“Favkulodda vaziyatlarda fuqaro muxofazasi ” O. Qudratov, T. Ganiev. 2005 y

Loyihalanayotgan hudud, ya'ni Oltinko'l tuman markaziga qurilayotgan mavze suv, issiq suv, gaz, elektr va telefon tizimi bilan ta'minlangan. O'rta qavatli binolar markazlashgan suv va issiq suv bilan ta'minlangan.

Mavzeda 2 ta maktab va 2 ta bog'cha mavjud. Maktab sig'imi har biri 1500ta bolaga mo'ljallangan. Bog'chalar esa har biri 360 ta bolaga moljallangan. Har bir maktab hududi chegaralangan. Stadioniga ega. Maktablarda ovqatlanish xonalari, sog'lomlashtirish markazi, kutubxonasi, Yopiqsport maydonchasi o'z yechinish xonasi bilan, tibbiy xona kabilari bor. Maktab xojatxonasi maktab ichida har bir qavatida joylashtirildi. Issiq suv markazlashgan quvurlardan keladi. Yong'in xavfizligi oldini olish uchun sekin yonuvchan qurilish ashyolaridan kurilgan. Yong'in paytida evakuatsiya qilish uchun qo'shimcha zinapoyoga ega. Yong'in paytida maktabga yong'in uchiruvchi mashina tezda kirishi uchun yo'l mavjud.

Markazda 2 ta bolalar bog'chasi bor. 2 qavatli bo'lib, sekin yonuvchan qurilish ashyolaridan kurilgan. Unda ham qishki yopiq bolalar o'ynash zallari, tashqarida esa yozgi o'yingohlari ham mavjud.

Markazdan Andijon va Namanganviloyatini bog'lab turuvchi tranzit yo'l o'tgan. Birinchi navbatda aholiga qulaylik yaratish maqsadida respublika miqyosida bo'lgan P-122 avtomobil tranzit yo'liga shahar miqyosidagi yo'l sifadida qaralishini va tranzit avtomobillar kiritilmaslik taklifini berdim. Chunki, tranzit avtomobillar ayni payitda qurilishi rejalashtirilgan 3- xalqa yo'li orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb bildim. Agarda bu yo'lni qoldiradigan bo'lsak aholiga katta noxushliklar keltirib chiqardi. Har bir turar joy binolari atrofida avtomobil uchun ochiq saqlash joylari bor.

Axlat yeg'ish muammosini esa mavzening 4 ta tomonida yangi texnologiyalar orqali uni yer ostiga yeg'ilishini ta'minladim. Yer ostida yeg'ilgan axlat tarmoqli bo'lib, u havo so'rgichlar orqali mavzedan tashqariga ya'ni, janubi sharqiy qismga borib yeg'iladi.

4.3. Qurilish jarayonlarida mexnat xavfsizligi

Qurilish jarayonida qurilish ob'ektlari to'siq devorlar bilan o'rab chikildi. Axoli yashash joyiga yaqinrok bo'lgan qurilish maydonlari chang va to'zonlardan doimiy ravishda tozalab turildi. Qurilish jarayonida chiqayotgan chikindilar markaz tashqarisida joylashgan maxsus joylarga olib borildi.

Qurilish davrida kuruvchilar xavfsizligi to'la ta'minlangan. Ular uchun aloxida yuvinish xonalari, ular ichida dushxonalar, gardyerob, umumiy ovqatlanish xonalari tashkil qilindi.

Xavfli qurilish zonalari ya'ni yuqori tok bilan ishlanadigan joylarda yerga ulangan ximoya kiluvchi simlar bilan jixozlandi. Axoli xavfsizligi uchun yo'l ustiga belgilar o'rnatildi. Elektr toki yordamida ishlovchi qurilmalarda xavfli ekanligini bildiruvchi yozuvlar o'rnatildi.

Qurilish davrida katta qurilish kranlari, mashina mexanizmlar axoliga xalakit bermaydigan maxsus qurilgan joylarda vaqtinchalik joylashdi. Bu kranlar, mashina mexanizmlarning ishlash darajasi ko'zatib tekshirib turildi.

Mashina mexanizmni ishlatuvchi ishchilar maxsus kiyimlar va boshqa xavfsizlikni ta'minlaydigan jixozlar bilan ta'minlandi.

Quruvchilar havozaalarda ham ishlaydilar. Metaldan tayyorlangan ustunli va kuchma tipdagi havozaalardan foydalanildi. Bu havozaalar tipovoy Loyiha bo'yicha zavodlarda tayyorlangan, mustaxkam va ishlash uchun qulay hamda uning ustidan ishchilar, qurilish matyeriallari va asbob – uskunalar qulab tushmasligi uchun muxofaza to'siqlariga ega. Havoza o'rnatilgan maydoncha avvalo yaxshilab tekislandi namgarchilik paytida havoza chukmasligi uchun tuproq shibbalandi. Havoza ustunlarining tayanch boshmoqlari qalinligi 5 sm dan kam bo'lmagan butun va qattiq taxta ustiga urntildi. Havozaalar qavatma-qavat va sektsiyalar o'zunligi bo'yicha montaj qilinib, bir vaqtning o'zida zinapoyalar ham o'rnatib ketildi. Ularning xavfsizligi ham ta'minlandi. Tom yopmalarida ham xavfsizlik to'la ta'minlandi. Ular yashil hudud tarkibiga kirib, tom yopmalari quyidagicha elementlardan tashkil topadi.

Quruvchilar ishchilar o'z ishchi joylari, ularning majburiyatlari bilan to'la tanishgan bo'lishlari kerak. Qurilish davrida agar baxtsiz hodisa sodir bo'lsa, chiqish joylari, birinchi yordam berish kabilarni bilishlari shart.

Qurilish davri albatta bosqichma bosqich olib boriladi. Shu bois qurilish maydonlari axoli yashashi, ishlashi kabilar xalaqit bermasligi zarur. Yo'l harakatini ham tuxtatib yoki to'sib quyishi mumkin emas. Qurilish davrida asosiy yo'l harakati tuxtatilmadi.

O'rta qavatli binolarni havozada turib pardoqlash vaqtida ximoya kamari takilgan holda. 1.5 m balandlik xavfli balandlik hisoblanadi. Atrofi chegaralangan, ximoya choralari kurilgan. Havozalar bo'yi o'zgaradigan maxsus mexanik.

Jamoat markazining asosiy qismini bog' tashkil etadi. Markazning 22 foizi qurilish uchun ajratilgan bo'lsa 78 foizi bog'dorchikikka asoslangan. Bog parkda axoli dam olishi uchun sharoit yaratilgan. Turli daraxtlar, archalar, past buyli daraxtlar, butalar ekilgan. Aholi tabiiy kislorod olishi uchun, tabiat qo'ynida dam olishi uchun hamma sharoitlar mavjud. Shiyponlar, ochiq sport maydonchalari, bolalar o'ynash maydonchalari bunga misoldir.

Qurilishning bosh tarxi qurilishni tashkil qilish Loyihalari ichida eng asosiysi hisoblanadi. Bu Loyihasiz qurilish maydonida ish yuritish qat'iyan man etiladi.

Ishlarni rejali va xavf xatarsiz olib borilishi, bosh tarxdagi xavfsizlik tadbirlari qay darajada xal qilinganligiga va shu bilan birga mahalliy tadbirlari kay darajada xal qilinganligiga va shu bilan birga mahalliy muhit va iqlim sharoitlari qanchalik to'lik hisobga olinganligiga bevosita bog'liqdir.

4.4. Yong'in xavfsizligi

Loyixlanayotgan mazvzeda Tuman Yong'in xavfsizlik xizmati xodimlarga qulaylik va tez xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun suv transport tizimini yaxshiladim. Markazda joylashgan maktab va 4ta bog'chalarga yong'in havfsizligi hodimlari kirishi uchun alohida yo'lakalar kirgazdim. Bunga ko'ra bino atrofida o't o'chirish mashinalari harakatlanishi uchun 6 m va binolar orasidan o'tish yo'llari eni 4 m.

Elektr jixozlar, havozaalar, uy –vagonchalar yerga ulandi va ular yashinning ta'siridan ham muxofazalandi.

Binoning har qaysi bloklari oldida o't o'chirish gidrontlari Loyihalashtirildi. Binolar katta yo'l chetiga, qurilish chizigiga to'g'ri holda joylashtirilgan. Yong'inga bardosh berishning I va II darajasi bo'lgan ishlab chiqarish binolarigacha eng kam masofa 9 m. Polimyer yoki yonuvchan matyerialdan isituvchi kullangan qoplamasi bo'lgan ishlab chiqarish binolarigacha 15 m dan kam bo'lmasligi kerak⁷.

Markaz hududidagi yong'in xavfsizligi bo'limi joylashtirilgan bo'lib yong'in chiqqan holda oz vaqt ichida yong'in sodir bo'lgan joyga etib kelishi ta'minlangan. Yong'in xavfsizliga deposi joylashgan hududda suv zaxirasiga extiyoj sezilmaydi. Markazning yangi Loyihalanayotgan hududida yong'in xavfsizligi uskunalari joylashtirilgan.

Loyihalanayotgan markaz maktab va bog'chalarda yong'in xavfsizlik choralari ko'rilgan. Maktab va bog'cha binosida yong'in xavfsizligi kran (2×1,5 m) mavjud. SHkafchalar engil ochiladi. SHkafchada yashikda maxsus o'tda yonmaydigan 8 m² liktent, kum va suv bor.

U yoki bu muassasa ishchi xodimlari yong'in chiqqan payda bu o't o'chirish moslamalari bilan qanday foydalanish usullarini bilishadi. Kerakli ma'lumotlarga ega. Omborxonalarda o't o'chirish uskunalari mavjud. Har bir qurilish maydonida telefon aloqalari mavjud. Telefon yaqinida yong'in xavfsizligi deposi nomyeri keltirilgan jadval bor.

Har bir qurilish maydonida chekish uchun aloxida joylar ko'zda tutilgan. Bundn tashqari xavfli qurilish maydonlarida masalan omborxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish kibilarda bo'lar atrofida yong'in xavfsizligiga qarshi nazorat qilish punktlari bor.

Gaz balonlarni saqlash uchun aloxida binolar ko'zda tutilgan. Qurilish vaqtida payvandlash ishlari olib borilatgan joylarda albatta o't o'chirish uskunalari va o't o'chirish og'itlari bilan ta'minlandi.

⁷“Bino va inshootlarda yong'in xavfsizligi” X.Azimov. 2005 y

Mavzeda avtomobilga yoqilgi qurish shaxobchalari kabi xavfli ob'ektlar yo'q. Ular markaz tashqarisida axoli yashamaydigan joylarga olib chikildi.

Jamoat binolarning ekspluatatsiya davrida yong'in chiqqanda xabar beradigan signalizatsiya bilan ta'minlangan. Yong'indan asosiy himoya bu loyihani va loyihada qo'llanilgan qurilish ashyolarini to'g'ri tanlanganligidan iboratdir. Xonadonlardagi xonalarda yong'in havfsizligi choralarini ishlab chiqdim. Asosiy o't o'chirish quroli suv bo'lganligi uchun, o't o'chirish bo'limlarini joylashish radiusi ham hisobga oldim. Turar joy va turar joy bo'lmagan binolar yong'in gidrantlari loyihada joylashishini ko'rsatdib o'tdim.

O't o'chirish gidrantlari va o't o'chirgichlar

Har bitta podyezdning kirish qismida yong'inga qarshi qutilarni o'rnatishni taklif etdim. Binolarning birinchi va ikkinchi qavatlarida maishiy - xizmat do'konlari bo'lmaganda, birinchi qavatning kirish qismiga mahalliy o't o'chirish qutilarini o'rnatdim. Binodan chiqishning asosiy eshigini ham, yong'in havfsizligi me'yorlariga binoan tashqariga ochiladigan eni 1.4metrli, umumiy og'rligi yong'in paytida erkin ochish mumkin bo'lgan metall va yog'och aralashgan eshiklari loyihaladim. Eshiklarda ochilmaydigan framugalar ham ko'zda tutilgan. Binolarda yong'in chiqish havfini va undan zararlanish miqdorini minimal darajaga yetkazishga harakat qildim. Zinapoyalarda 1.4x0.75 metr o'lchamdagi derazalarni loyihada taklif etdim. Ular qavatdagi zararli hidlarni tashqi havo bilan almashtirib, zinapoyalarda mikroiqlim yaratadi. Qish va o'tish mavsumlarida konditsiya jihozlari bu vazifani bajaradi⁸.

⁸"Bino va inshootlarda yong'in xavfsizligi" X.Azimov. 2005 y

Xulosa.

Markaz rekonstruksiyasini qilishdam maqsad biz bilamizki yurtimizda tuman yoki qishloq markazlarini misol qilib oladigan bo'lsan ualarning hammasi ham hozirgi zamonaviy talablarga unchalik mos kelmasligini ko'ramiz. Bu holatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun yurtimizda ko'plab insonlar mehnat qilishmoqda biz yoshlar ham ushbu insonlarning mehnat mahsullaridan ilhomlangan holda markazlarimizning arxitekturaviy ko'rinishini yaxshilash uchun o'z takliflarimizni bersak maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'yladim. Men ham o'zimni tug'ulib o'skan tumanim markazini rekonstruksiyasi taklifini loyihalashtirdim

Markazda transport tarmoqlari juda sodda va qulay joylashdi. Turarjoy ahamiyatidagi yo'llarni majmuaning tashqi tomonidan olib o'ttim. Bu esa oz navbatida axolini havfdan asraydi va turli xil shovqinlardan holi bo'ladi. Markazning muhandislik tarmoqlari ham talablarga mos ravishda amalga oshirildi.. Unga ekeltr tarmoqlari kabellar bevosita yon qoplamalar bo'ylab joylashtirilishi. Gaz taminoti gaz quvurlarining kirishi binolarning hovli tomidan o'tkazildi. Suv va kanalizatsiya tarmoqlari esa normalarga muvofiq issiqlik tarmog'i va suv quvurlarining kirishi, shuningdek, oqavaning chikishi asosan binolarning yon chet qismidan o'tkazildi. Biz mana shunday loyihalar qilar ekanmiz yuqorida keltirilgan barcha normalarga qoidalarga rioya qilishimiz zarur. Har bir binonig zamindan mustahkam joy olishi avvalambor uning tog'ri joy tanlanganligiga, tuzilgan loyihaning bexato bo'lishiga va qurishda ehtiyot choralatini e'tiborga olinishda mujassamlashadi. Binoning sanitar gigienik talablar asosoida zaminga joylashishi uning kelajakda omma uchun ko'p xizmat qilishi uchun asos bo'ladi. Binodagi evokuatsiya ishlari hamda yong'in havfini oldini olish imkoniyatlari esa eng avvalo inson umri bilan bog'liq hodisa sifatida muhim qoida hisoblanadi.

4.ADABIYOTLAR:

1. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A.Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini: 1 qism, darslik / O'zR oiliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi,-Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 - 160 b.
2. Mirzayev M.K., Latipov D.V. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik asoslari. O'quv qo'llanma. T.2000 TAQI.
3. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O'quv qo'llanma. T.2001 TAQI.
4. Isamuhamedova D.U. «Shaharsozlik asoslari». O'quv qo'llanma. T., 2000- u SHNK 2.07.01- 03 «SHahar va qishlok aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish» Toshkent- 2006.
- 5.SHNK 2.05.02- 07 «Avtomobil' yo'llari» Toshkent- 2007
- 6.CHyerepanov V.A. «Transport v planirovki goroda». M., Stroyizdat, 1970.
- 7.“Qurilishda mexnat xavfsizligi” X. Azimov I qism. 1997 y
8. “Qurilishda mexnat xavfsizligi” X. Azimov II qism. 2003 y
9. “Favkulodda vaziyatlarda fuqaro muxofazasi ” O. Qudratov, T. Ganiev. 2005 y
10. KMK 2.01.01-94 «Klimaticheskie i fiziko-geologicheskie dannye dlya proektirovaniya» Tashkent 1994g.
11. KMK 3.01.02-00 «Texnika bezopasnosti v stroitel'stve», Tashkent 2000g.
- 12 SHNK 2.01.02-04 «Pojarnaya bezopasnost' zdaniy i soorujeniy» Tashkent 2004g.
- 13 KMK 2-01-05-98. Tabiiy va sun'iy yoritilganlik. T., 1998 y.
14. V.P. Bushev “Ognestoykost' zdaniy”. M., 1970 g.
15. “Bino va inshootlarda yong'in xavfsizligi” X.Azimov. 2005 y
- 16: Радинов А.И. и другие,”Техника защиты окружающей среды”Учебник для вузов.М1989 й.
- 17.Отабоев “Инсон ва биосфера”Тошкент,Укитувчи 1995 й.
18. Белов С.В. “Охрана окружающей среды” М.:Высшая школа,1991 й.
19. Чистякова С.Б. “Охрана окружающей среды”,М.Стройиздат,1988 й.
- 20..Абдуллаев Х.А. “Биохимия ва тупрок мухофазаси асослари”,Т.1989 й.

Internet saytlar:

www.ziyonet.uz

<http://02s.ru/viewpage85da.html>

<http://base.garant.ru>

<http://02s.ru/viewpage8091.html>

<http://www.gosthelp.ru>

http://www.znaytovar.ru/gost/2/PravilaPravila_po_oxrane_truda2.html